

“Ximoyaga ruhsat etildi”
Pedagogika fakulteti dekani,
g.f.n., dotsent
_____ **K.Boymirzayev**
“ _____ ” _____ **2018 yil**

5110900- Pedagogika va psixologiya yo’nalishi bitiruvchisi

ERGASHEV DO’SSTON QOSIMJON OG’LIINING

“DIDAKTIKANING VUJUDGA KELISHI VA TADRIJIY RIVOJLANISHI
“BUYUK DIDAKTIKA” ASARI MISOLIDA.

”

mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Ximoyaga tavsiya etildi” Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri _____ p.f.nM.S.Nisho nov “ _____ ” _____ 2018 y.	BM I rahbari:p.f.n. dotsent O’ . M. Asqarova
1 Namangan 2018	

Mudarija

Kirish.....	
I BOB TA'LIM JARAYONIDA DIDAKTIKANING G'OYALAR TA'LQINI.....	
1.1. G'arb pedagoglarining didaktik ta'limoti.....	
1.2. Didaktik tizimlar va ularning turlari.....	
II BOB YAN AMOS KOMENSKIYNING "BUYUK DIDAKTIKA" ASARI VA UNING O'RGANISH BOSQICHLARI.....	
2.1. XVII-XX aslarda "Buyuk didaktika" asarining o'rni.....	
2.2. G'loballashuv jaryonida ta'lim mazmunini rivojlanishida Yan Amos Komenskiy ta'limotining o'rni.....	
Tajriba sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish.....	
XULOSALAR	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	
ILOVALAR.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta'lim sohasidagi islohotlarning asl mohiyati haqida fikr yuritgan ekan: "Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa - bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidagi chetda qolib ketishi muqarrar.", deb ta'kidlagan edi va bugungi kunda jamiyatning yangilanishi, hayot taraqqiyoti va istiqboli barcha sohadagi islohotlar samaradorligi yuqori malakali ongli mutaxassislar tayyorlashga bog'liq ekanligini alohida uqtirib o'tadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ongu tafakkuri, intilishi va harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Harakatlar strategiyasi odamlarni ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik muhitida yashash va ishlashga da'vat etmoqda. Har bir soha faoliyati ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lgan, fuqarolik jamiyatining ajralmas bir qismi bo'lgan jamoatchilik nazorati ostida rivojlanishi zarurligini kun tartibiga qo'yimoqda. Bunday muhitda insonning davlat, jamiyat va o'zi oldida mas'uliyatni to'la his etib yashashi, so'zi bilan ishi bir bo'lishiga rioya etish fazilatlarini asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Harakatlar strategiyasi O'zbekistonda xuquqiy demokratik asosdagi xalq davlatini barpo etish yo'lini har tomonlama asoslab beradigan hujjat hisoblanadi.³ Harakatlar strategiyasining IV- bo'limida

Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustvor yo'nalishlari deb nomlangan 4.4 - bandida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" masalalari o'z aksini topdi¹.

Ya'ni:

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish:

- ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital tahmirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy - texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish:

- ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish:

- ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy - eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish nazarda tutilgan.

Mamlakatimiz prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "Avvalgi uchrashuvlarda ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy ta'lil qilib berilgan edi. Bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekani sababli ushbu sohadagi ishlar shaxsan bosh vazirga yuklatilgan."²

¹Мирзиёев Ш.М. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси Тошкент.: Ўзбекистон, 2017. Т. - 10 б.

²Мирзиёев Ш.М. "Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак". Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва

Pedagogika nazariyasidan har bir bo'lg'usi o'qituvchi-bakalavr, qaysi fan mutaxassisi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar va ko'nikmalarning umumiy xajmini, o'qituvchi-murabbiyga xos umumiy kasbiy va shaxsiy fazilatlarni shunidek ta'lim va tarbiya nazariyalarini egallashlari lozim. Ayni paytda o'rta maxsus va kasb xunar ta'limi o'qituvchilarining o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Shunga ko'ra xar bir mutaxassis-o'qituvchi shaxsi o'ziga xos betakrordir va bu xolat o'z navbatida bakalavr-bo'lhusi o'qituvchilarni pedagogikadan tayyorlash mazmuni, umumiy va o'ziga xos jihatlarini va aloqadorligi o'zaro uyğunlikda namoyon bo'ladi.

Ta'lim nazariyasi talabaning umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosimizga xurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta'lim, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bohliqligi to'hrisida aniq tasavvur hosil qiladi. Bo'lajak o'qituvchi pedagogika tarixi kursini o'rganish davomida boshqa psixologik-pedagogik o'quv fanlari, pedagogik tushunchalar yuzasidan fikr yuritadi hamda ularning mohiyatini tushuna boradi.

Yan Amos Komenskiy progressiv g'oyalari bugungi kunda mustaqil O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi islohotlari, uning maqsad vazifalari bilan o'ziga xos uyg'unlikni ko'rsatdi.

Aynan ilm-ma'rifat orqali jamiyatdagi progressiv yo'nalish asosi portlash effektini amalga oshirish Prezidentimiz I.A.Karimovning asosiy g'oyalaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim mazmunini standartlashtirish, yangi pedagogik texnologiyaga asoslanish Yan Amos Komenskiy o'z davrida ilgari surgan progressiv g'oyalarning davomidir

U yoki bu pedagogik konsepsiyalar, ta'limotlarni tavsiflaganda shu ta'limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqyealarni asos qilib olish nazarda tutiladi.

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur. Bunday murakkab ijtimoiy vazifani hal etishda boshqa fanlar qatori ilmiy asosga qurilgan milliy pedagogika zimmasiga katta mas'uliyat tushadi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda: «O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi siyosatini umuminsoniy qadriyatlarni, xalqning tarixiy tajribasini, madaniyat va fan bobida ko'p asrlik an'analarini, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgizadi», — deyilgan.

Shu bilan bir qatorda, ta'lim va tarbiya bilan hamma, ya'ni butun jamiyat a'zolari shug'ullanishlari kerak ekanligini ham hayotning o'zi ko'rsatdi. Bu mas'uliyatli vazifada o'z faoliyatini ta'lim-tarbiya sohasiga bag'ishlagan kishilar bilan bir qatorda jamiyatning bilimli va obro'-e'tiborli a'zolari, oliy ma'lumotli mutaxassislar o'z hissalarini qo'shishi kerak. Chunki ular o'zlarining bilimlari va yuqori malakalari bilan mehnat jamoalarida katta e'tiborga egadirlar. Xamma joyda ularning so'zlari yuqori ta'sir kuchi bilan ajralib turadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:

Didaktikaning tadrijiy rivojlanishi hamda Ya.A.Komenskiyning pedagogik tizimi mohiyatini tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti: Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan ta'lim nazariyalari va ularning mohiyatYa.A.Komenskiyning pedagogik tizimi o'rganish jarayoni

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

1. Didaktikaning tadrijiy rivojlanishini urganish

2. Yan Amos Komenskiy hayoti va faoliyatini yoritish
3. Yan Amos Komenskiy yashagan davr va uning ijtimoiy qarashlarini tahlil qilish
4. Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati, sinf-dars tizimining yaratilishini tadqiq etish.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati

-Didaktikaning tadrijiy rivojlanishi nazariy asoslab berildi

-Buyuk didaktika asaridagi nazariy g'oyalardan amaliyutda foydalanilib yaxshi natijalarga erishildi va shu asosida tavsiyalar ishlab chiqil

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, 4 ta paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

IBOB Ta'lim jarayonida didaktikaning g'oyalar ta'lqini

1.1. G'arb pedagoglarining didaktik ta'limoti.

Bashariyat moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, tabiat, jamiyat va inson tafakkurida amal qiladigan qonuniyatlarni bilish, moddiy xamda ma'naviy olam xaqidagi bilimlarni yoshlarga o'rgatish yo'li bilan rivojlanadi. Bu jarayonlarga yetarli ahamiyat bermaslik, ularning birontasini e'tibordan chetda qoldirish jamiyatni inqirozga olib keladi.

Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish umuminsoniy tajriba bo'lib, u jamiyatning iqtisodiy negizini yaratishga yo'nalgan. Ishlab chiqarish qonuniyatlari, printsiplari, usullarini iqtisod fanlari o'rganadi. Tabiat, jamiyat va tafakkur xodisalarini falsafa, tabiiy va ijtimoiy fanlar tadqiq etadi. Bu fanlar soxasida to'plalgan bilimlar insoniyatning o'zi uchun xiyamat qiladi. Zero, bashariyat to'plangan bilimlardan amaliyotda foydalanish yo'li bilan o'zini tabiiy injiqliklardan — ochlikdan, sovuqdan, ofatlardan, shuningdek, iqtisodiy va siyosiy tanazzuldan ximoya qiladi.

Moddiy va ma'naviy olam to'g'risidagi bilimlarni yoshlarga o'rgatish masalalarini didaktika tadqiq qiladi. Yoshlarni o'qitish va ma'lumotli qilish masalalari bilan metodika fanlari xam shug'ullanadi. Didaktika va metodika fanlari bir-biridan qanday farq qiladi? Bu fanlar o'rtasidagi o'xshashlik, aloqadorlik nimalardan iborat?

Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat etish muammolari didaktika tadqiq etadigan asosiy masalalardir. Bu masalalarni kibernetika xam o'rganadi. Ta'limga didaktika va kibernetika fanlari nuqtai nazaridan yondashishdagi umumiylik va xususiylik nimalardan iborat?

Ta'lim jarayonida talabalarning o'quv-biluv faoliyati tashkil etiladi, bolalarning biluv faolyiati, tafakkuri asosida ta'lim amalga oshiriladi. Bilish jarayoni va tafakkur xodisalarini falsafa, psixologiya, fiziologiya fanlari xam o'rganadi. Bolaning bilishi, tafakkurini o'rganishga didaktika qanday yondashadi?

Bu savbllarga ishonarli javob izlash didaktikaning tadqiqot predmetini chegaralashni taqozo etadi.

Didaktika ijtimoiy tajribani yoshlarga o'rgatish muammolarini tadqiq qiluvchi pedagogik fandır. Ijtimoiy tajriba mazmunan boy tushuncha bo'lib, u tabiat, jamiyat va inson tafakkuri xaqidagi bilimlarni xam, xozirgi zamon ishlab chiqarishining umumiy asoslari to'g'risidagi qarashlarni xam, moddiy va ma'naviy olamga oid tasavvurlarni xam o'ziga qamrab olddi. Uni yoshlarga o'rgatish avlodlar o'rtasidagi vorislikni ta'minlaydi. Xo'p, shunday ekan, didaktikaning tadqiqot predmeti"—munozara baxsi nima?

Manbalarda didaktikaning munozara baxsi turlicha talqin qilinadi. SH. I. Ganelin, B. P. Yesipov «ta'lim» va «ma'lo'mot» tushunchalari o'rtasidagi munosabatga asoslanib, didaktikaning predmetini bayon qilishgan: ularning fikricha, ta'limning ma'lumotga mo'nosabati vrsitaning maqsadga munosabati shaklida amal qiladi; xar qynday yaxlit didakxyk kazariya ta'lim va ma'-lumot nazariyaeidir. «Didaktikaning predmeti,—deb qayd etishgan edi bu olimlar,— xar doim yosh avlodning ma'lumoti mazmuni va shu mazmunni egallash jarayonini tashkil etishdir».

Xaqiqatan xam, didaktika yoshlarni ma'lumotli fuqarolar qilib yetishtirish, bilim va malakalarni egallash jarayonini tashkil etish masalalari bilan shug'ullanadi. Ammo bu ma'lumot va uni egallash jarayoni didaktikaning tadqiqot predmetidir, degan xulosaga olib kelmasligi kerak.

Yuqoridagi ta'rifda didaktikaning tadqiqot predmeti ikki narsa — ma'lumot mazmuni va ta'lim sifatida belgilangan. Xar qanday fan, jumladan, didaktika xam, yagona tadqiqot predmetiga ega. Keltirilgan ta'rifda didaktika o'rganadigan soxa—tadqiqot ob'ekti bilan didaktikaning munozara baxsi — tadqiqot predmetini chegaralamaslik natijasida chalkashlikka yo'l qo'yilgan.

«Didaktika» termini ma'nosidan kelib chiqib, didaktikaning predmetini aniqlash moyilligi xam bor. T. A. Иыина «Didaktika» — grekcha «didaktikos» so'zidan olingan bo'lib, «o'qitish» ma'nosini anglatadi degan fikrni keltiradida, «didaktikaning predmeti—ta'lim jarayoni va uning qonuniyatlaridir»,— deb yozadi.

To'g'ri, qadimgi greklar o'qitish faoliyatiga nisbatan «didasko», pedagog o'rnida «didaskal», talabaga nisbatan «didaskales» atamalarini ishlatishgan. Ammo «didaktika» termini o'zining dastlabki ma'nosidan ancha uzoqlashgan. Xozir bu tushunchaning xajmi va mazmuni ancha boyigan va kengaygan bo'lib, u faqat pedagogning faoliyatini emas, shu bilan birga, talabaning faoliyatini xam o'ziga qamrab oladi. Bu tushunchaning mazmun va xajm jixatidan boyiganligini xisobga oladigan bo'lsak, u paytda didaktikaning munozara baxsi noaniq qayd etilganini aytib o'tishga to'g'ri keladi.

Taniqli polyak didakti CH. Kupisevich «o'qitish» va «o'qish» atamalarining daxldorligiga asosanib didaktikaning tadqiqot predmetini belgilaydi. Uning yozishicha, didaktikaning tadqiqot predmeti o'qitish va o'qish jarayonlar bilan birga ularni o'qitish va o'qish jarayonlarini) yuzaga keltirish faktorlari, shart-sharoitlari va bu jarayon olib keladigan natijalardir, CH.Kupisevich didaktikaning tadqiqot predmetini juda keng tasvirlagan. Didaktikaning tadqiqot predmeti sifatida ajratilgan didaktik xodisa genetik jixatdan birlamchi, yagona, universal va umumiy xarakterda bo'lishni xam unutmashlik kerak.

DIDAKTIKA LOGIKASI

Didaktika uziga xos tadqiqot soxasiga va tadqiqot predmetiga ega bulganidek, uning o'ziga oid tushunchalar tizimi xam mavjud. Xar bir tushuncha ma'lum didaktik xodisaga taalluqli bo'lib, ular vositasida didaktik xodisalarning asosiy belgilari umumlashtiriladi. Demak, didaktik tushunchalar pedagogik fikrlash formasi, shuningdek, didaktik xodisalarni bilish, tadqiq qilish, bayon qilish xamda ulardan amaliyotda foydalanish vositalaridir.

Moxiyati va mazmuniga ko'ra didaktik tushunchalar ikki turga bo'linadi: asosiy tushunchalar, yordamchi tushunchalar. Masalan, «ta'lim»— asosiy tushuncha, yordamchi tushuncha—«Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarigacha ta'lim», «boshlang'ich ta'lim», «o'rta ta'lim»; «dars—tushunchasi asosiy dars tiplari—«yangi bilim berish», «mustaxkamlash» kabilar yordamchi tushunchalardir. Asosiy va yordamchi tushunchalar umumiylik va xususiylikning o'zaro munosabati shaklida amal qiladi. Didaktik tushunchalar tizimi asosiy tushuncha mohiyati,

mazmuni negizida belgilanadi. Masalan, matabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, maxsus ta'lim kabi tushunchalarning mazmuni «ta'lim», dars tipi, dars turi, dars etapi kabi tushunchalar «dars» tushunchasi kontekstida aniqlanadi.

Didaktik xodisalarning umumiy xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalarga didaktik kategoriyalar deyiladi. Kategoriyalarning ma'lum izchilligi didaktika logikasi sanaladi. Didaktika logikasi didaktik xo-disalarga oid muammolarni qo'yish, o'rganish, bayon qilish vositasi xisoblanadi.

Ta'lim didaktikasida qo'llanadigan eng sarmazmun tushunchadir. Ta'lim mazmun va xajm jixatdan murakkab, shu bilan birga, ko'p ma'noli kategoriyadir. Prof. V. V. Kraevskiy uning quyidagicha ma'nolarini ajratadi.

Umumiy pedagogika darajasida «ta'lim» ijtimoiy tajribani yoshlarga o'rgatish ma'nosida qo'llanadi. «O'zbekiston Respublikasining ta'lim kontseptsiyasi» matnida ta'lim xuddi shunday keng ma'noda qo'llangan.

Umumiy didaktika darajasida «ta'lim» ma'lumot mazmunini o'zlashtirish uchun pedagog va talaba faoliyatining birligi, ularning o'zaro ta'siri ma'nosida ishlatiladi.

Metodika darajasida «ta'lim» aynan olingan bir o'quv predmeti materiallarida o'qitish va o'qish faoliyatlarini birgalikda amalga oshirishni anglatadi.

Psixologiya darajasida «ta'lim» pedagog va o'kuvchining o'zaro ta'siri majmui bo'lib, uning natijasida talabaning intellekti, psixikasini rivojlantirish ma'nosini bildiradi.

Ta'lim didaktika nuqtai nazaridan ikki sub'ektning — o'qitish va o'qishning birgalikdagi kooperativ-shirkat faoliyatidir. Ikki sub'ekt faoliyatining o'zaro ta'siri, bir-biriga kirishuvidan ta'lim yuzaga keladi. Bu yerda gap aynan olingan konkret pedagog, konkret talaba xususida emas, aksincha, o'qitish va o'qish faoliyati bilan mashg'ul pedagoglar, talabalar to'g'risida ketyapti. Ta'lim shirkat faoliyat sifatida ilmiy asoslangan o'quv rejalari, dasturlari va o'qo'v qo'llanmalariga ega. Kollektiv sub'ektlar faoliyati, O'quv rejalari, dasturlari, qo'llanmalariga ko'ra ta'lim ijtimoiy institut sanaladi.

Yuqorida qayd qilinganidek, ta'lim o'ta murakkabligi bilan boshqa didaktik kategoriyalardan farq kiladi: darsni kuzatib pedagogning qanday ishlarni bajarganini, qanday bosqichlarni tashkil etganini, qaysi tema bo'yicha mashg'ulot o'tganini sezamiz, yozib boramiz. SHuningdek, talabalarning mashg'ulotdagi xatti-xarakatlari, yntilishy, qiziqishlarini, ularni faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni bevosita etamiz. Ta'limni esa sezgi a'zolari yordamida qayd etish mumkin emas. U abstraktsiyalash yo'li bilan tasavvur etiladi.

Ta'lim ijtimoiy institut sifatida ikki xil xususiyatga ega: ta'limning mazmuni xususiyatlari, ta'limning jarayoni xususiyatlari. Mazmuniy va jarayoniy xususiyatlari jixatdan ta'lim «ma'lumot mazmuni», «ta'lim mazmuni», «ta'lim jarayoni» kategoriyalari bilan bog'liqdir.

Ma'lumot mazmunida xozirgi zamon fani, texnikasi madaniyati, ishlab chiqarishi va fikrlashining umumiy asoslari aks etadi. Binobarin, ma'lumot mazmunida fan, texnika, madaniyat, ishlab chiqarish, tafakkurga oid yetakchi qarashlar, g'oyalar, nazariyalar, faktlar beriladi. qarashlar, g'oyalar, nazariyalar, faktlar o'rtasidagi bog'lanishlar ma'lumot logikasi sanaladi. Ma'lumot logikasini bolalarning tayyorgarligi, yosh xususiyatlariga moslab tanlash va ularga pedagogik ishlov berish masalalari bilan ma'lumot nazariyasi shug'ullanadi. Keyingi yillarda ma'lumot mazmuniga sistem yondashish moyilligi kuchayib bormoqda. M.N.Skatkin, V.V.Kraevskiy, I.Ya.Lerner kabi qator olimlarning, ilmiy tadqiqotlarida ma'lumot mazmunining quyidagi to'rtta elementdan iborat ekanligi isbotlandi:

— **bilimlar tizimi.** Bilim — tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qiladigan qonuniyatlarning turli belgilar (masalan, yozuv) vositasida moddiylashtirilgan ko'rinishidir. Bilimlar qarash, g'oya, ta'rif, qoishda, aniqlik, aksioma, teorema, fakt va sh.k. shaklida beriladi;

— **ko'nikma va malakalar** — bilimlarni o'zlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'llari bilan shakllanadi. Malakaning quyi bosqichiga ko'nikma deyiladi. Mashq, trenirovka (bir

xil faoliyatni o'zgartirmasdan aynan takzirolash) vositasida ko'nikma yuqori bosqichga—malakagi aylanadi. Malaka avtomatlashgan ko'nikmadir.

— **ijodiy faoliyat tajribasi** — an'anaga aylangan fikrlash va faoliyat chegarasidan tashqariga chiqish demakdir. Uquv va xayotiy muammolarni original usullar bilan xal etish, o'z oldiga vazifalar qo'ya bilish faoliyat ko'rsatishning yangncha usullarini egallash yo'llari bilan talabalar ijodiy faoliyat tajribasini egallashi;

- **munosabatlar tizimi.** Tabiat, jamiyat, tafakkurga munosabat ma'lumot mazmunining navbatdagi tarkibiy qismidir.

UMUMIY VA XUSUSIY DIDAKTIKA

Umumiy didaktika pedagog va talaba faoliyatining o'zaro ta'siri to'g'risidagi fan bo'lib, u barcha o'quv predmetlarini — ijtimoiy-gumanitar, tabiiy fanlarni o'qitish, ma'lumotning xamma darajalarini — Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarigacha, boshlang'ich, o'rta, kasb-xunar, oliy ta'limni amalga oshirish muammolarini o'rganuvchi fandir. U o'z tadqiqot predmeti moxiyatidan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob izlaydi.

Nima uchun o'qitiladi? Bu savol ma'lumotning maqsadi, vazifalari bilan aloqadordir. Jamiyatning, shuningdek, fan, texnika, madaniyat taraqqiyoti asosida Oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarining maqsadi, vazifalari belgilanadi. Bizda- O'zbekistonda rivojlangan demokratik xuquqiy davlat barpo etilmoqda. Bunday davlatda xar tomonlama rivojlangan ijodkor yoshlarni tarbiyalash asosiy maqsad sanaladi.

Nega shunday o'qitiladi? Bu savolga ko'ra ta'lim jarayoni qonuniyatlari, printsiplari o'rganiladi. Ta'lim jarayoni qonuniyatlari ochilib, printsiplari asoslangan sari, o'quv-tarbiya ishlarining sifati, samaradorligi oshadi.

Nima o'qitiladi? Bu savol asosida ma'lumot mazmuni, uning tarkibiy

elementlari aniqlanadi. Ma'lumot mazmuni keng tushuncha bo'lib, u ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlarni o'ziga qamrab oladi. Ma'lumot mazmuni tarkibida to'rtta element ajratiladi bilimlar tizimi (1); ko'nikma va malakalar tizimi (2); ijodiy faoliyat tajribasi (3); munosabatlar tizimi (4). Xozirgi an'anaviy Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor bilimlarni o'zlashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Bu o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tajribasining eng zaif tomonidir. Ma'lumot mazmunining barcha elementlariga rioya qilib, ta'lim jarayonini tashkil etish yo'li bilangina xar tomonlama rivojlangan yoshlarni yetishtirib chiqarishi mumkin.

qanday o'qitiladi? Bu szdol ta'lim metodlari, usullari, vositalarini o'rganishga yo'nalgan. SHu savolga ko'ra, ta'lim metodlari, usullari, vositalarining samaradorlik darajasi taxlil etiladi.

Ta'lim qanday tashkiliy shakllar vositasida amalga oshiriladi? Bu savol ta'limning tashkiliy shakllarini (dars, uy ishi, ekskursiya va sh.k.) turlarini (izoxli—ko'rsatmali, differentsial, muammoli va boshqalar), talabalar miqdoriga ko'ra ta'lim xillarini (individual, gurux, umumsinf) o'rganishga yo'nalgan. Umumiy didaktika — barcha o'quv predmetlari, ma'lumot darajalari asosida ta'limning maqsadi, maz-muni, qonuniyatlari, printsiplari, metodlari, tashkiliy shakllari, natijalarini o'rganuvchi fandir.

Talabalarning xususiyatlari, tayyorgarligi, ma'lumot darajalari va o'quv yurti tiplariga qarab umumiy didaktikaning ushbu turlari farqlanadi: Oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarigacha ta'lim didaktikasi; boshlang'ich sinflar didak-tikasi; o'rta Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalari didaktikasi; kasb-xunar didaktikasi; maxsus ta'lim didaktikasi; oliy ta'lim didaktikasi¹.

Umumiy didaktika, uning turlari barcha o'quv predmetlari, ma'lumot darajalariga oid muammolarning xammasini o'rgansa, xususiy didaktika (an'anaviy terminga ko'ra, «o'quv predmetlari metodikasi») aynan bir o'quv predmetini o'qitishning maqsadi, qonuniyatlari, printsiplari, mazmuni,

metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarini o'rganadi. Xususiyl didaktikalar sirasiga matematika metodikasi, ona tili metodikasi, biologiya metodikasi va boshqalar kiradi.

Xususiyl didaktikalar umumiy didaktika bo'yicha o'rganilgan bilimlarni, masalan, ta'lim-printsiplari, ma'lumot mazmuni bo'yicha xosil qilingan tasavvurlarni inkor etmaydi. Aksincha, xususiyl didaktika bo'yicha o'rganiladigan bilimlar umumiy didaktikadan xosil tsilingan tushunchalarni to'ldirishga, ularni yanada oydinlashtirishga ko'maklashadi. Binobarin, umumiy va xususiyl didaktikalar o'zaro uzviyl bog'liql pedagogik fanlardir.

Umumiy va xususiyl didaktikalarning o'zaro aloqadorligini quyidagi misol bo'yicha tasavvur etish mumkin: ona tili o'qitishda ta'lim printsiplarini (ushbu qo'llanmaning ta'lim printsiplari bobiga qarang) barchasi-amalga oshiriladi. SHu bilan birga, Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarilarda ona tili o'qitishning o'ziga xos printsiplari xam mavjud. Bu printsiplar sirasiga til materiallarini ajratishga o'rgatish, nutq organlarini yetarli mashq qildirish, nutqdan tilga qarab borish, yozma nutqni og'zaki nutqqa chog'ishtirib o'rganish kabilar kiradi.

1.2. Didaktik tizimlar va ularning turlari

Oldingi boblarda qayd qilinganidek, mexnatning ijtimoiyl taqsimlanishi natijasida turli kasblar» jumladan.pedagoglik kasbi xam, paydo bo'ldi. Jamiyatda ijtimoiyl tajribani o'rgatuvchilar (ustozlar) va urganuvchilar (shogirdlar) toifalari ajraldn. Ta'lim ustoz va shogirdning o'zaro ta'siri shaklida amal qila boshladi.

Ta'limning ustoz va shogirdning o'zaro ta'sir shaklida amal qilishi ayrim yoshlarning u yoki bu faoliyat soxasida o'z ustozil darajasiga ko'tarilishiga, ba'zilarining esa o'z ustozidan o'zib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada ijtimoiyl tajribani o'rganishning dastlabki qolipi («Men bajarganday bajar») bilan

yonma-yon ikkinchi qolip («o'zing istaganday bajar») ishlatila boshlandi. Oqibatda ijtimoiy metodlar ta'limda o'z maqomini egalladi.

Ta'limning ijtimoiy institut sifatida shakllanishi bilan parallel yozuv, keyinchalik bosma kitob ixtiro qilindi. Bu insoniyat tarixida o'ziga xos inqilob edi. Yoshlar bilimni ikki manbadan—xam pedagog nutkidan, xam kitobdan o'rgana boshladi.

qadimgi grek faylasuflarining asarlarida «didasko», «didaskal», «didaskales» so'zlari «o'rganish», «pedagog», «o'rganuvchi» ma'nolarida qo'llangan. SHuningdek, quldorlik jamiyatida «kalokagatxiya» formulasi (grekcha «kalos kay agatos» so'zlarining qisqargan shakli) mavjud bo'lib, u ma'naviy va jismoniy munosabatlarda uyg'unlik mazmunini anglatgan. SHu formulaga ko'ra ma'naviy boyliklarni o'rgatish mazmuni, jismoniy mashqlar tizimi belgilangan. Bu paytga ke-lib ta'lim muayyan mazmun va ma'lum maqsadga yo'nalganlik kabi xususiyatlarga ega bo'ldi. Binobarin, quldorlik jamiyatidayok ilmiy didaktikaning kurtaklari paydo bo'lgan edi.

XVII asrning boshlarida nemis tilshunos olimi Volʼfgang Ratixiy — Ratke (1571—1635) «didaktika» terminini «o'qitish san'ati» ma'nosida qo'llagan. 1613 yilda Kristof Xel'vig va Yoxim Yung Volʼfgang Rat-kening tilshunoslik va nemis Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalariida ona tili o'qiish soxasydagi tajribalarini umumlashtirib, «Didaktikadan qisqacha xisobot yoki Ratixiyning o'qitish san'ati» nomli asarni yozishgan. Bu asarda «didaktika termini «o'qitish va tarbiya san'ati» ma'nosida qo'llangan. Keyinchalik ingliz faylasufi Fransis Bekon (1561—1626) 1620 yilda yozilgan «Yangi organon» nomli asarida fanlar sistemasi xususida fikr yuritib, «didaktika» terminini «badiiy asarni o'qish san'ati» ma'nosida ishlatgan. Garchand XVII asrning ikkinchi yarmigacha «didaktika» termini turli ma'nolarda qo'llangan bo'lsada, ta'lim didaktik tizim sifatida asoslanmagan edi. Didaktik tizim nima? Didaktik tizim — ta'limda pedagog va o'quvchi faoliyatini tashkil etish maqsadi, mazmuni, vositalari, usullari, tashkiliy shakllari to'g'risidagi qarorlar (g'oyalar) majmuydir.

Didaktik tizimlarning ayrimlarida asosiy e'tibor pedagog faoliyatiga, ba'zilarida esa talaba faoliyatiga qaratilgan. Ana shunga ko'ra didaktik tizimlarni shartli ravishda uch guruxga ajratamiz: klassik! didaktik tizimlar. Bunday didaktik tizimlar «o'qitish o'qishdan katta» qolipi asosida yaratilgan; progressiv didaktik tizimlar «o'qish o'qitishdan katta»! qolipi asosida yaratilgan bo'lib, ularda ustunlik o'quvchi faoliyatiga berilgan zamonaviy didaktik tizimlar o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro uyg'unligini xisobga olish asosida yaratilgan.

quyida yetakchi didaktik tizimlarning tarixiy — tanqidiy tavsifini keltiramiz.

Klassik didaktik tizim — namunali, xamma tomonidan e'tirof etilgan, umuminsoniy ma'naviyatlar darajasida tan olingan didaktik qarashlar majmuidir.

Klassik didaktik tizimlarda didaktika fanining kategorial apparati — didaktika logikasiga oid asosiy tushunchalar chegaralangan, ma'lumot mazmunini moddiylashtirish vositalari (masalan, darslik, ko'rgazma qurol va sh.k.) belgilangan, didaktikadagi asosiy g'oyalar—ta'limning rivojlantirish (I.G.Pestalotstsi), tarbiyalovchanlik (I.F.Gerbart) xususiyatlari, shuningdek, tabiatga (Ya.A.Komenskiy) va madaniyatga (A.Disterveg) moslab o'qitish kabi qarashlar"; asoslangan, ta'limning yetakchi printsiplari, ta'lim metodlari va uning asosiy tashkiliy shakllari ishlab chiqilgan edi.

YaN AMOS KOMENSKIY (1592-1670)

«Didaktika» terminini keng ma'noda qo'llash buyuk chex pedagogi Ya. A. Komenskiyning «Buyuk didaktika» asarida uchraydi. Asarning asosiy sarlavxasidan («Buyuk didaktika») keyin «Xammani xamma narsaga o'rgatuvchi universal san'at» iborasi bu terminning keng ma'noda ishlatilganidan dalolat beradi. Asar 1657 yilda Amsterdam shaxrida ilk bor nashr etilgan. Didaktikaning fan sifatida tan olinishi shu sanadan boshlanadi.

«Buyuk didaktika» asarining dastlabki bobida uning ota-onalarga tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash, pedagoglarga qiynalmasdan o'qitish, talabalarga zerikmasdan o'qish, Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalariga ma'lumotli kishilarni tayyor-lash, davlatga tarbiyalangan fuqarolarni yetishtirish, cherkovga ixlosmand kishilarni tarbiyalash uchun qulayligi aloxida uqtirilgan.

Ya.A.Komenskiy fan tarixida birinchi bo'lib didaktika, Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarishunoslik, tarbiya nazariyasi va pedagogik psixologiya poydevorini yaratdi, sinf dars sistemasiga asos soldi. U o'zining didaktik qarashlarini «Analitik didaktika» nomli asarida yanada rivojlantirdi. Uqitish, uning fikricha, talabalarni o'quv material bilan tanishtirishdir. Didaktik tizim uning fikricha, uchlikdan iborat: pedagog, talaba, o'quv material. O'qituvchi — bilimlarni o'rgatuvchi, talaba — bilimlarni idrok etuvchi kishilardir. Uquv material — bilimning pedagogdan talabaga siljishi, xarakati, o'tishi. Bilimni puxta o'zlashtirish uchun uch narsaga qat'iy rioya qilish zarur: bolalarni bilim olishga tayerlash, o'quv materialini bayon etish, bayon etilgan materialni mustaxkamlash.

Mustaxkamlashning o'zi xam, Ya.A.Komenskiyning ta'kidlashicha, o'ch shartga bog'liq: o'rganilgan o'quv materialini vaqti-vaqti bilan takrorlab turish yangi materyalni oldingi temalarga bog'lab bayon etish, oldin o'tilgan materiallarni takrorlab yangi temaga o'tish. Ko'rinadiki, u o'zining didaktik qarashlarida ta'lim jarayoni zvenolarini isbotlashgacha yetib kelgan edi.

Ya. A. Komenskiy butunni bo'laklarga ajratish, bo'laklarni qo'shib butunni xbsil qilish, butunni butun bilan, bo'lakni bo'lak bilan taqqoslashdan kelib chiqib ta'lim metodlarini uch guruxga ajratgan: analitik metod—bu metodda yaxlitdan bo'laklarga qarab boriladi (1), sintetik metod—bu metodda bo'laklardan yaxlitga qarab boriladi (2).

Maorifni demokratlashtirish g'oyasini ko'tarib chiqan pedagoglardan

birinchisi xam Ya.A.Komenskiydir. U boy va kambag'al kishilarning bolasi xam, o'g'il va qiz bolalar xam, shaxar va qishloq bolalari xam Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalariga qatnashi, ma'rifatni egallashi zarur, deb uqtirgan edi. Ya.A.Komenskiy o'zining g'oyaviy raqiblariga qarata shunday deb yozgan edi: barcha yoshlarning ma'lumot olishi ta'minlansa, xammaning istak-xoxishlari bajariladi, xamma o'z qobiliyatiga yarasha ish topa oladi, xamma go'zal fikrlay oladigan bo'ladi.

Ya.A.Komenskiyning xizmati shundaki, u didaktikaning munozara baxsini «pedagog-o'quv material talaba» tizimida olib qaraydi. Uning fikricha, yaxshi pedagog, tarbiyali talabalar, puxta o'ylab tanlangan o'quv material bolalarning bilimlarini kengaytiradi. O'quvchi bilan pedagogni bog'laydigan zveno o'quv material sanaladi. Ta'limda «pedagog bilan o'quvchi o'zaro munosabatda bo'ladi». SHunday qilib, Ya. A. Komenskiy ta'lim pedagog bilan talabaning o'zaro ta'siri natijasida amalga oshadi, degan fikrga yaqinlashib kelgan edi.

Ya.A.Komenskiy ingliz faylasufi Frensis Bekonning sensualistik falsafasiga asoslanib, ta'limni tabiatga moslashtirib tashkil etish g'oyasini ximoya qiladi. Didaktikaning vazifasi,— deb qayd etadi u,— ta'limda «narsalarning tabiiy tartibini» aniqlashdan iborat. Bu fanning munozara baxsi bolalarning bilish qobiliyatlarini, ta'lim metodlarini o'rganishdir. Barcha bilishlarning manbai sezgilardir. Binobarin, yozgan edi buyuk pedagog, o'qitishni shunday tashkil etmoq kerakki, unda bolalar bilimlarni kitoblardangina, pedagogning tushuntirishidangina emas, balki tevarakatrofdagi narsalarni kuzatish, xodisalar o'rtan sidagi sababiyatli bog'lanishlarni izlash yo'li bila xam o'rgansin. U tabiatga moslab o'qitish printsipida» kelib chiqib, ta'limning mazmuniy va jarayoniy xususyatlarini o'rganadi, Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarilar uchun darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratdi. Demak, Ya.A.Komenskiy fan tarixida birinchi bo'lib yaxlit didaktik tizimga asos soldi.

IOGAN GENRIX PESTALOTSTSI (1746-1827)

Ya.A.Komenskiyning pedagogik qarashlari Yevropaning qator davlatlarida didaktik; nazariya va pedagogik amaliyotning rivojlanishiga samarali ta'sir etdi. Kapitalistik jamiyatning uzluksiz rivoji, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining taraqqiyoti fan, madaniyat va maorifning yangi-yangi targ'ibotchilarini tarix saxnasiga olib chiqdi. Ana shunday ilg'or fikrli pedagoqlardan biri shveytsar demokrat didakti Iogan Genrix Pestalotstsidir.

I.G.Pestalottsi maorifni demokratlashtirishning qizg'in tarafdori edi. U «Gertruda o'z bolalarini qanday o'qitadi» nomli asarida xozirgi Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalari ta'limi quyi tabaqa axolisi manfaatlariga mos emasligini uqtiradi va o'z didaktik tizimini «kambag'allarni o'qitish metodi» deb nomlanadi.

I.G.Pestalottsi boshlang'ich ta'lim didaktikasining asoschisi, tabiatga moslab o'qitish g'oyasining qizg'in targ'ibotchisi edi. U Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarida ona tili, matemataka fanlari soxasida qator ilmiy asarlar yozdi. Bola dunyoga kelgan vaqt, deb kayd etgan edi. I.G.Pestalottsi, uning uchun o'rganish boshlangan paytdir. Uning fikricha, ta'limning asosiy vazifasi bolalarda bilish qobiliyatlarini rivojlantirish faol aqliy faoliyatni o'stirish, mantiqiy fikrlashni shakllantirishdan iborat. SHunday qilib, I. G. Pestalottsi **taraqqiy ettiruvchi ta'limga** asos soldi.

Ta'lim xalqni uyg'otmog'i, unda o'z kuchiga ishonchni tarbiyalamog'i lozim. Buning uchun uchta asosiy vosita bor: madaniyatli qalb; rivojlangan daxo (aql); axloqiy taraqqiyot. Uning fikricha, ta'lim—tarbiyaning bosh yo'lidir. Umumiy ma'lumot maxsus ma'lumotdan oldin beriladi. Bolaning psixologiyasiga moslashgan ta'lim ko'rsatmali o'qitishdir. I. G. Pestalottsining uqtirishicha, idrok qilinadigan narsalar uchta asosyy o'lchovga ega: miqdor, shakl, nom. SHunday ekan, bolalarni xisoblashga, o'lchashga va so'zlashga o'rgatmoq nixoyatda zarur. Aqliy ma'lumot narsa-xodisalarni kuzatish, taxlil etish va ularni so'z bilan ifodalashdan iborat. SHu xulosaga tayanib, u ta'limning to'rtta bosqichini ajratadi: narsa-

xodisalarni idrok etish (1), idrok etilgan narsalarning xajmi, shakli, miqdori to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish (2); narsa-xodisalarni taxlil qilish yo'li bilan tushuncha xosil ish (3), narsalarning nomini, tushunchalarni so'z bilan aytib berish (4).

KONSTANTIN DMITREVICH USHINSKIY (1824-1870)

O'z o'tmishdoshlari Ya. A.Kamenskiy, I.G.Pestalotstsi I.F.Gerbart, A.Disterning pedagogik merosini tanqidiy o'rganib, g'arbiy Yevropa o'quv-yurtlarida tarbiya ishlarini tashkil etish tajribasini umumlashtir yaxlit didaktik tizim yaratgan buyuk siymolardan biri K. D. Ushinskiy edi. U o'zining pedagogik qarashlarida inson bilishi moddiy olam bilan bog'liqligini ylmiiy asosladi materiya va ong, garchand ular xar xil xususiyatlarga ega bo'lsalar-da, o'zaro uzviy bog'langan, ikkinchisi (ong) birinchisiz yashay olmaydi; materiya va ongning o'zaro aloqadorligi nervlar orqali amalga oshadi; nervlar tashqi olam ta'sirini o'tkazuvchi yagona organizmdir. Ong xam, sezgilar xam nerv tizimining ta'siri natijasidagina namoyon bo'ladi; biz bilgan, bilib oladigan narsalar sezgilar orqali o'tadi; tashqi olam bilish manbaidir. K.D.Ushinskiy fikricha, materiya va ongning o'zaro bog'liqligiga asoslangan falsafa pedagogika fani taraqqiyotini to'g'ri belgilay oladi, shuningdek, didaktikaning bundan keyingi taraqqiyoti materialistik falsafaga bog'liq.

K.D.Ushinskiy o'z didaktik tizimida birinchi bo'lib ta'lim jarayonini va ilmiy bilish jarayonini o'zaro taqqoslab o'rganishni boshlab bergan didaktdir. Uning fikricha, bu ikki jarayonni bir-biriga tenglashtirish, bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Fanda kashfiyot qiladigan olim xam, oldindan kashf qilingan bilimlarni o'zlashtiruvchi talaba xam tevarakatrofdagi narsa-xodisalarga oid faktlarni kuzatadi, faktlardan xulosalar chiqarishadi. Olim piramidaning cho'qqisida, talaba esa uning pastki qismi-poydevorlarida faoliyat ko'rsatadi. Piramida tepasidan emas, aksincha, poydevordan boshlab quriladi. Xuddi shunga o'xshab fanni o'rganish asosdan, ya'ni birinchi kuzatishlardan, ilk xulosalardan, faktlarni taxlil etishdan

boshlanmog'i darkor.

ABDULLA AVLONIY (1878—1934)

Abdulla Avloniy Turkistonda ilg'or didaktik g'oyalarning tarqalishi va rivojlanishiga munosib xissa qo'shgan buyuk o'zbek pedagogidir. U o'zining qator asarlarida ma'lumot mazmuni, ta'lim printsiplari xamda ta'lim metodlariga oid muammolarni XX asrning boshlaridagi tarixiy sharoit — Turkistonda kapitalistik munosabatlar-ning shakllana boshlash xususiyatlaridan kelib chiqib asoslagan edi.

Abdulla Avloniyning «Adabiyot yoxud milliy she'rlardan 1-juz» (1909 y.), «Birinchi muallim» (1912 y.), «Turki guliston va axloq» (1913 y.), «Adobi avval» (1914 y.), «Ikkinchi muallim» (1915 y.), «Adabiyot yoxud milliy she'rlarning 2-juzi» (1917 y.) kabi didaktik asarlari, she'rlari, ilmiy-pedagogik maqolalari o'zbek madaniyati, adabiyoti, pedagogikasi taraqqiyotida muxim o'rin tutadigan madaniy merosdir. Endigina bu asarlarni o'rganish, ulardan xulosalar chiqarish imkoniyati tug'ildi.

Abdulla Avloniy o'z pedagogik qarashlarida ta'lim printsiplarining bir qanchasini ilmiy asoslagan edi. Ta'lim, Abdulla Avloniy fikricha, milliy ruxga mos bo'lishi va milliy tilda amalga oshirilmog'i lozim. Fors yoki arab tilini bilmaydigan o'zbek bolalari «Ibtido mikunay banomi xudo», «Sano lil-xoliqu g'af-foru aflok» kabi murakkab tushunchalarni anglay olmaydi. Bunday o'qitish «erdan turib yulduzga qo'l cho'zishga o'xshaydi». Endigina o'qishni va yozishni o'rganayotgan bolalarga ona tilida bilim bermok, ular tushunadigan yengil asarlarni o'qitmok kerak. Ko'rinadiki, Abdulla Avloniy ta'limda milliylik g'oyasi bilan yonma-yon o'qitishning tushunarligi printsiptini xam e'tirof etadi.

Abdulla Avloniyning «Turki guliston yoki axloq» asarida ta'lim-tarbiya birligi printsipti aloxida diqqatga sazovordir. Asarning kirish qismidayoq shunday jummalarni o'qiymiz: «Men bu asarimni Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarilari-mizning yuqori sinflarida ta'lim bermak ila barobar ulug'

adabiyot muxiblari — axloq xavaskorlarining e'tiborlariga taqdim kildim». O'z vaqtida boshlangan tarbiya vujudni quvvatlantiradi, axloqni kuchlantiradi, zexnni ravshanlantiradi. «Dars bilan tarbiya orasida biror farq bo'lsa xam, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga bog'langan jon ila tandir».

Abdulla Avloniy oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalari ta'limini dunyoviy bilimlar asosida tashkil etish g'oyasini ximoya qilib chiqqan buyuk pedagogdir. U 1907 yilda yangi usuldagi oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalari ochib, unda til, adabiyot, tarix kabi ijtimoiy-gumanitar, xisob, xandasa, fizika (xikmat), geografiya kabi tabiiy fanlardan elementar bilim berish g'oyasini amaliyotda sinab ko'radi. Abdulla Avloniy tashkil etgan oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlari sinf-dars shaklida olib borilardi, Unda asosan, kambag'al bolalari o'qitilardi. Mashxur pedagog tuzgan «Jamiyati xayriya» ko'ngilli uyushmasi kambag'al bolalariga o'quv qurollari, kiyim-kechak, oziq-ovqatni bepul berishardi. Xatto oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalari mebelini tayyorlashda — doska, parta yasashda uning o'zi faol ishtirok etardi. Yangi usul oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarida o'quv, yilining oxirida bolalar ota-onalari ishtirokida o'z bilimlarini namoyish etishardi. Demak, Abdulla Avloniy oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, boshqarish va nazorat butunlay yangicha mazmun, metodlar asosida olib borilardi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Abdulla Avloniy ta'limning maqsadi, mazmuni .printsiplari, metodlari, tashkiliy shakllari, darslik va o'quv qo'llanmalari tuzish bo'yicha yaxlit didaktik tizim yaratgan o'zbekdidaktidir.

Didaktikaning keyingi taraqqiyoti XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida paydo bo'lgan va pedagogikada «Yangi tarbiya» nomi bilan yuritilgan yo'nalish bilan bog'langan. Yangi tarbiya targ'ibotchilari E. Demolen, S. Reudi, A. Ferber va boshqalar tashabbusi bilan an'anaviy Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarilar o'rniga tadbirkorlarni tarbiyalashga

mo'ljallangan pulli oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarilar ochildi. Yangi oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarilar shaxar chekkasidagi internatlar shaklida tashkil etilgan bo'lib, ularda aqliy ma'lumot san'at, gimnastika, qishloq xo'jaligi va qo'l mexnati ta'lim bilan qo'shib olib borilardi.

Yangi tarbiya tarafdorlari klassik didaktika tanqid qila turib, XX asr oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarini «mexnat oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarii» «ijtimoiy xayotda ishtirok etish oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarii», «bolala yuz yilligiga munosib oliy o'qkuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarii» deb atashdi, Ular ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni talabaga qaratib, bir tomondan, mashxur frantsuz gumanisti Jan Jak Russoning (1712—1778) «Xur tarbiya» to'g'risidagi g'oyalarini yangi sharoitda rivojlantirishdi, ikkinchi tomondan esa, o'sha davrdagi mavjud pedotsentirizm nazariyasini yangi g'oyalar bilan boyitishdi.

Yangi tarbiya nazariyasi kontseptsiyasi o'z davrida progressiv va, shu bilan birga, ziddiyatlarga boy pedagogik qarash edi. Bu nazariya tarafdorlari bolaning qiziqishlari, extiyojkori nuqtai nazaridan oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarini ammolarini xal qilishar, ta'limning mazmuni, metodlari, vositalarini tanlashda talabaning xususiyatlarini xisobga olishardi. Ularning tashabbusi bilan ilmiy ishlar soxasida pedagogik eksperiment qo'llana boshlandi. SHu bilan birga, ular ta'limning izchilligi. O'quv dasturlari, darsliklarining ta'limdagi rolini inkor etishgacha yetib borishdi.

Yangi tarbiya tarafdorlar qarashlarida o'ta so'l fikrlar bilan birga ilg'or, progressiv g'oyalar xam mavjud edi: Gugo Gauding (1860—1923) an'anaviy «Kitobiy bilimlar» Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarini bolalarda «ijodiy intilishlarni xar tomonlama rivojlantirish» Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalariga aylantirish shiorini o'rtaga tashladi; Ovidiy Dekroli (1871 —1932) mavjud Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalarilarning an'anaviy printsiplar doirasidan chiqa olmayotganini

tanqid etibor «xayot uchun va xayot orqali o'qitish» oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalariini yaratish muammosini kun tartibiga qo'ydi; Eduard Klapared. (1873—1940) dasturlar, darsliklarda talabalarning qiziqishlari, extiyohlari xisobga olinmaganligini qoralab, bolalar psixologiyasi va imkoniyatlariga mos oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalari yaratish masalasini o'rta tashladi; Genrix Rovid (1877-1944) amaldagi oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarilarning xayotdan, ishlab chiqarishdan uzilib qolganini ta'kidlab «Yangi faol oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalari yaratish» g'oyasini olg'a surdi.

Yangi tarbiya tarafdorlari o'z didaktik qarashlarida I.F.Gerbart va uning izdoshlari bilan munozara qilishar, ularni formalizm, rigorizm (qoida, printsiplar doirasidan chiqarib olmaslik), avtoritarizmga ayblashardi. Ana shularga ko'ra ular pedagogika tarixida «progressivistlar» nomini olishdi.

Oldingi paragraflarda klassik va progressiv didaktik tizimlarning xususiyatlari bilan tanishdik. -Klassik didaktik tizimlar «o'qitish o'qishdan katta»-qolipi asosida yaratilgan bo'lib, ularda asosiy e'tibor pedagogga qaratilgan: ta'limning mazmuni, uning samarador vositalari, usullari, tashkiliy shakllari pedagog faoliyatiga— o'qitishga nisbatan o'rganilgan, ilmiy-tadqiqot ishlari markaziga xam pedagog faoliyati ko'chirilgan, ilmiy ishlar natijasi pedagogga qaratilgan.

Progressiv didaktik tizimlar klassik didaktik tizimlarning teskarisi o'laroq «o'qish o'qitishdan katta» qolipi asosida yaratilgan bo'lib, ularda asosiy e'tibor talabalar faoliyatiga — o'qishga qaratilgan: o'quv-chilarning qiziqishi, xoxishlarini xisobga olib ta'limni tashkil etish, oliy o'quv yurtlari yoki ta'lim muassasalarini bolalarning extiyohlariga muvofiqlashtirish kabi g'oyalar asosida bolalarning mustaqilligini ta'minlay oladigan usullar, vositalar, ta'limning tashkiliy shakllari o'rganilgan.

Zamonaviy didaktik tizimlar «o'qitish o'qishga barobar» qolipi asosida yaratilgan bo'lib, ularda o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro kirishuvi, uyg'unlashuvidan kelib chiqib didaktik xodisalar bayon etilgan.

Bunday didaktik tizimlar sirasiga Yu.K.Babanskiy, V.V.Kraevskiy kabi qator olimlarning ilmiy-tadqiqotlari, amriqolik didaktlar asoslagan ochiq ta'lim tizimi, xamkorlik pedagogikasi kiradi.

Zamonaviy tizimlarda o'qitish va o'qish faoliyatla-riga bir xil e'tibor beriladi, ular o'rtasidagi sababiyatli va struktural bog'lanishlar ajratiladi, ta'lim shirkat faoliyat sifatida taxlil etiladi, ta'lim zvenolari, tsikllarini pedagog va talabalarning xamkorlikda qurishga e'tibor qaratiladi, didaktik xodisalar pedagog va talabaning o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan sharxlanadi.

YuRIY KONSTANTINOVICH BABANSKIY (1927-1988)

Yu.K.Babanskiy o'tgan asrning 70—80-yillarida didaktika fani rivojiga milliy pedagogik kadrlar tayyorlashga munosib xissa qo'shgan gumanist pedagog edi. Uning didaktik sistemasida ta'limni optimallashtirish nazariyasi aloxida o'rshpsh egallaydi. U sovet didaktlariorasida birinchilardan bo'lib, mavjud ta'lim sistemasining kamchiliklarini payqagan, ta'limni xar bir mintaqaning milliy xususiyatlari, madaniy va iqtisodiy rivojlanishi darajasidan kelib chiqib tashkil etish g'oyasini ximoya qildi.

Ta'limni optimallashtirish muammosini Yu.K.Babans-kiyning fikricha, pedagog va talabaning o'zaro ta'siri moxiyatidan kelib chiqib ilmiy asoslash mumkin. Ta'limni optimallashtirish pedagog va o'quvchilarning vaqtini, ularning jismoniy xamda aqliy intilishlarini tejash maqsadida ma'lum sharoit uchun eng maxbul (samarador) ilmiy asoslangan variantni tanlash va shu variant asosida ta'limni amalga oshirish demakdir. U optimallashtirish g'oyasi asosida ta'limda pedagog va talabalar faoliyatini o'zaro uyg'unlashtirish, bu ikkala faoliyatni bir-biriga muvofiqlashtirish metodikasini yaratdi

Ochiq ta'lim tizimi

40

Ochiq ta'lim tizimi o'tgan asrning 60-70 yillarda dastlab Angliyada, keyinchalik Amriqoda paydo bo'ldi. Ochiq ta'lim tizimiga ko'ra, bolalar o'z tengdoshlari bilan bevosita muloqotda bo'lishadi,

o'zlarini qiziqtirgan muammolarni birgalikda mustaqil tanlashadi, tanlangan muammoni xamkorlikda «xal etishadi. Bu tizimda bolalarning o'zaro yordami man etilmaydi, aksincha ta'lim o'zaro yordam, musobaqa-lashuv yo'li bilan amalga oshiriladi. Ta'limni tashkil etish, boshqarishga shu yo'sinda yondashuv talabalar o'rtasidagi raqobatni yo'qotadi, ularning bir-biriga xurmatini oshiradi.

Amriqolik olimlardan R.Xorvits, K.Karpenter o'tkazgan ilmiy tadqiqotlarda ochiq ta'lim tizimi klassik tizimlarga taqqoslab o'rganilgan. Bu ikki xil yondashish bo'yicha ishlagan pedagoglar o'z o'quv predmetlari bo'yicha bir xil o'zlashtirish berishgan. Ammo ochiq ta'lim tizimi asosida o'qigan yoshlar klassik tizimlar asosida tayyorlangan bolalarga nnsbatan o'z oldiga qo'yilgan muammolarga ijodiy yondashishgan, ularda birga ishlash ishtiyoqi paydo bo'lgan, mustaqillik yuqori darajada rivojlangan.

P.Massena, A.Xbyustonlarning yozishicha, ochiq ta'lim sistemasi bir to'g'ri chiziqning uchlarida joylashgan ikki xil metodikadir. CHiziqning bir uchida pedagogning tushuntirishi, aytib berishi, qilib ko'rsatishi, tavsiyalari asosida bajariladigan topshiriq tursa, ikkinchi uchida bolalarning o'z xoxishlari bo'yicha tanlanadigan va mustaqil bajariladigan topshiriklar turadi.

XAMKORLIK PEDAGOGIKASI

Xamkorlik pedagogikasi targ'ibotchilari yuqoridagi kamchilikdan xalos bo'lish yo'lini ta'limni qayta qurishda ko'rishadi. Ularning fikricha, Oliy ukuv yurtlari yoki ta'lim muassasalari ta'limi xayotiy mazmun kasb etganda, bolalar shavq-zavk; bilan o'qiganlarida, ta'lim bolalarning rivojlani-shiga, ular shaxsining shakllanishiga mo'ljallab tashkil etilgandagina samarador amal qiladi.

Pedagogik jarayon, deb qayd etishadi, xamkorlik pedagogikasi asoschilari, qiyinchiliklarni bartaraf etish jarayonidagi pedagog va uquvchining

xamkorligi.

Ta'limda xamkorlikni ta'minlash uchun bolalarni talabalik roliga o'rgatish kerak. Bolalarni talabalik roliga tayyorlashda pedagog quyidagilarni amalga oshiradi: bolalarda o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, o'qish motivlarini tarbiyalash, irodani taraqqiy ettirish, burchni anglashga o'rgatish, kollektivda yashay olish va ishlay olish ko'nikmalarini o'stirish, o'z-o'zini taraqqiy ettirishga moyillikni shakllantirish.

Xamkorlik pedagogikasi targ'ibotchilari faoliyatida pedagog'ik nazariya va pedagogik amaliyotning qator jumboqli masalalari xal etildi: SH.A.Amonashvili 6 yashar bolalarni o'qitish tajribasi asosida ta'limda ijtimoiy qimmatga ega motivlarning rolini, ularning bola shaxsini rivojlanishidagi o'rnini asosladi; S.N.Lisenkova boshlang'ich sinf talabalari faoliyatini boshqarishning original usulini kashf etdi. U o'qitgan boshlang'ich sinflarda bolalar o'quv mexnati sohasidagi o'z yutuqlaridan sevinishadi, bolalar tayanch sxemalarga rioya qilishib o'zlarining yutuq va kamchiliklariga izox berishadi; V. F. SHatalovning amaliy faoliyatida pedagogik jarayondagi eng mushkul masalalardan biri — bolalarda xar kuni aqliy mexnat bilan shug'ullanish ko'nikmasini shakllantirish muammosi xal etildi. U ishlagan sinflarda talabalarning o'z shaxsiy sha'nlarini anglash, o'z kuchi va qobiliyatiga qat'iy ishonchni xosil qilish, mustaqillikni shaxsiy sifatga aylantirish kabi didaktik muammolar xam amaliy, xam nazariy isbotlandi.

Iogann Genrix Pestalotssi Shveytsariyaning Syurix shahrida vrach oilasida tug'ildi. Pestalotssi otadan yosh judo bo'lib, onasi hamda oddiy dehqon ayol — ularning sobiq xizmatchisi tarbiyasida o'sdi.

Pestalotssi avval boshlang'ich maktabda, so'ngra lotin maktabida o'qib ilm oldi. Pestalotssi o'rta maktabni ²⁸ tamomlagach, ko'proq gumanitar fanlar o'qitiladigan oliy o'quv yurtiga — kollegiumga, uning filologiya va falsafa bo'limlariga kirib o'qidi. Pestalotssi kollegiumni tamomlamay turib, xalqning ahvolini yaxshilash to'g'risida o'zining azaldan orzu qilib kelgan niyatini amalga

oshirishga qaror qildi. 1769 yilda Pestalotssi o'zining ijtimoiy tajribasini boshladi. U pul qarz olib, kichikroq qo'rg'on va yer sotib oldi, bu yerga "Neygof" ("Yangi qo'rg'on") deb nom berdi va tevarak-atrofdagi dehqonlarga o'z xo'jaliklarini unumdor xo'jalikka aylantirishni o'rgatish maqsadida, bu yerda namunali ferma tashkil qilmoqchi bo'ldi. Tajribasiz va xo'jalik ishlaridan bexabar bo'lgan Pestalotssi oradan ko'p o'tmay sindi, va u xalq foydasini ko'zlab yana yangi yo'llar qidirishga majbur bo'ldi.

U 1774 yilda "Neygof"da "Kambag'allar muassasasi"ni ochib, yetim va boqimsiz bolalardan 50 ga yaqin kishini shu muassasaga to'pladi. Pestalotssining fikricha, bolalarning o'zlari ishlab topgan pullar shu yetimxonaning xarajatini qoplashi kerak edi. yetimxonada tarbiyalanayotgan bolalar dalada ishlar, shuningdek, to'quv va yigiruv dasgohlarida ip yigirib, mato to'qir edilar. Pestalotssining o'zi bolalarga o'qish, yozish va hisob o'rgatar, ularni tarbiyalash bilan shug'ullanar edi. Hunarmand ustalar esa bolalarga ip yigirish va to'qishni o'rgatardilar. Shu tariqa, Pestalotssi o'z muassasasida bolalarni o'qitishni ularni unumli mehnatga o'rgatish bilan qo'shib olib borishga urindi.

Pestalotssi boshlagan ish tezda barbod bo'ldi, chunki siyosiy hokimiyat va moddiy mablag'larning egalari uni qo'llab-quvvatlamadilar. Bolalar ming mashaqqat bilan mehnat qilish tufayligina o'zlari yashab-ishlab turgan yetimxona xarajatlarini ko'tara olar edilar, lekin gumanist va demokrat Pestalotssi o'zi tarbiyalayotgan bolalarni bunday og'ir sharoitda yashashini istamasdi va bunga yo'l qo'ya olmas edi. U bolalarni mehnatini, avvalo, bolalarning jismoniy kuchlarini aqliy va axloqiy qobiliyatlarini o'stirish vositasi, deb bildi. U bolalarga faqat hunar o'rgatibgina qolmasdan, balki ularni keng ravishda mehnatga o'rgatishga intildi.

Pestalotssi Neygofda o'tkazgan tajribaning pedagogika uchun ahamiyati katta bo'ldi. Pestalotssi tajribani davom ettirish uchun mablag' bo'lmaganligi sababli oradan ko'p vaqt o'tmay yetimxonani yopishga majbur bo'ldi. Lekin bu muvaffaqiyatsizliklar uni, xalqqa yordam berish maqsadidan qaytara olmadi.

Pestalotssi 1798 yil Shveytsariya inqilobi natijasida yetim qolgan 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan 80 bolaga mo'ljallangan yetimxona ochadi. Bu yetimxonaning ish mazmuni uni 1799 yili yozgan "Stansda bo'lishi to'g'risida do'stlaridan biriga yuborgan maktub"ida quyidagilarni bayon etadi:

"Ertalabdan to kechgacha ularga yakka o'zim hamroh edims Mening qo'llarim ularning qo'lida, ko'zlarim ularning ko'zlarida edi. Ular yig'lasa, men ham yig'lar edim, ular kulsa, men ham kular edims Ular nima yesa, men ham shuni yeyman, nima ichsa, men ham shuni ichar edim. Mening o'shalardan boshqa uyim ham, do'stim ham, xizmatchim ham yo'q edis"

Pestalotssi yetimlarning sevimli otasi, eng yaxshi do'sti edi. Urush harakati boshlangandan keyin yetimxona yopildi.

Keyingi o'n sakkiz yil davomida Pestalotssi o'sha davrning eng muhim masalasini: dehqon xo'jaliklarini qanday qilib tiklash, ularning turmushini yaxshilash, mehnatkashlarning axloqiy va aqliy holatini qanday qilib o'zgartirish masalasini hal qilishga jamoatchilik e'tiborini tortishga intilib, adabiy faoliyat bilan shug'ullandi. U "Lingard va Gertruda" (1781—1787) degan ijtimoiy-pedagogik roman yozib, bu romanda xo'jalikni oqilona usulda olib borish va bolalarni to'g'ri tarbiyalash vositasi bilan dehqonlarning turmushini yaxshilash to'g'risidagi o'z g'oyalarini olg'a surdi.

XIX asrning boshlaridayoq Pestalotssining "Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi", "Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida qo'llanma", "Kuzatish alifbesi yoki o'lchash haqida ko'rsatmali qo'llanma", "Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim" degan kitoblari bosilib chiqdi. Bu kitoblarida boshlang'ich ta'limning yangi usullari bayon qilindi.

1800 yili Pestalotssi rahbarligida institut tashkil etildi. Institut tarkibiga, internat shaklidagi o'rta maktab hamda o'qituvchilar tayyorlash seminariyasi kiritilgan edi. Tez orada bu institut ³⁰butun dunyoga mashhur bo'ldi. Pestalotssi 1825 yili Iverden instituti o'qituvchilari orasidan kelib chiqqan nizolar natijasida o'z qishlog'i "Neygof"ga qaytadi va 80 yoshga yetgan, qariya bo'lishiga qaramay, bu yerda o'zining oxirgi asari — "Oq qush qo'shig'i" (1826) asarini yozdi.

Pestalotssi o'zining butun iste'dodi va kuchini mehnatkashlarning og'ir ahvolini yaxshilashga sarflagan bo'lsa ham, lekin ularning ahvolini yaxshilashga muvaffaq bo'lolmaganligining sababi nimaligini tushunolmadi. U 1827 yilda vafot etdi.

Pestalotssining ijtimoiy-pedagogik va falsafiy qarashlari.

Pestalotssi o'z xalqini oyoqqa turg'azishni orzu qildi, u mehnatkashlarni o'qitish va tarbiyalash yo'li bilan ularning turmushini o'zgartirish mumkin, deb o'yladi. U xalq boshiga tushgan kulfatlarning manbai iqtisodiy sharoit emas, balki ma'rifatning yo'qligi deb bildi.

Pestalotssi hamma odamlar tarbiya va ilm olish huquqiga ega bo'lishi lozim, maktablar jamiyatni ijtimoiy jihatdan o'zgartirishning muhim vositalaridan biri bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Uning fikricha, har bir kishining haqiqiy insoniy kuchlari harakatga kelib, mustahkamlangandagina eng muhim ijtimoiy masalalar hal qilinadi. Bunga tarbiya yo'li bilan ham erishish mumkin.

Pestalotssining fikricha, mehnat odamni tarbiyalash va o'stirishning eng muhim vositasidir, mehnat odamning jismoniy kuchlarinigina emas, shu bilan birga, aqlini ham o'stiradi, shuningdek, unda axloq ham tarkib toptiradi. Mehnat bilan shug'ullanayotgan odam mehnatning jamiyat hayotida juda katta ahamiyati bor degan ishonch tug'iladi, bunday ishonch esa odamlarni ahil va mustahkam ijtimoiy ittifoq qilib, bir-biriga bog'lovchi eng muhim kuchdir.

Pestalotssining fikricha, bilish sezgi organlari orqali idrok qilishdan boshlanadi va tasavvurlarni qayta ishlash yo'li bilan g'oyalar darajasiga ko'tariladi, g'oyalar esa, garchi ravshan bo'lmasa ham odamning ongida tarkib toptiruvchi kuch tariqasida mavjud, lekin o'zining namoyon bo'lishi va jonlanishi uchun sezgilar yetkazib beruvchi materialga muhtojdir.

Pestalotssining dunyoqarashi insonparvarlik ruhi bilan, demokratik intilishlar ruhi bilan sug'orilgan hamda ba'zi bir materialistik da'volarni va dialektik qoidalarni o'z ichiga olgan edi.

Pestalotssining fikricha, tarbiyaning maqsadi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirish, o'stirganda ham har tomonlama va bir-biriga

uyg'un ravishda o'stirishdir. Tarbiyaning bolaga ko'rsatayotgan ta'siri uning tabiatiga uyg'un bo'lishi lozim.

Pestalotssi tarbiyaning mohiyati to'g'risidagi tasavvurga asoslanib, tarbiyaning yangi metodlarini — insonning kuchini inson tabiati bilan muvofiqlashtirib, o'stirishga yordam beradigan metodlarni yaratishga intiladi. Bolani tarbiyalashni, deydi u, uning tug'ilgan kunidanoq boshlash lozim: "Bola tug'ilgan soat — unga ta'lim berishning birinchi soatidir". Shu sababli chinakam pedagogika onani to'g'ri tarbiyalash metodlari bilan qurollantirishi kerak. Pedagogika san'ati esa shu metodikani har bir ona, jumladan, oddiy dehqon ayol ham egallab oladigan qilib soddalashtirib berishi lozim. Oilada tabiatga muvofiq qilib boshlangan tarbiya maktabda ham davom ettirilishi lozim.

Barcha insoniy kuchlar va imkoniyatlar eng oddiy narsalardan rivojlana boshlaydi va sekin-asta murakkabroq darajaga ko'tarila beradi. Tarbiya ham ana shu yo'ldan borishi lozim.

Har bir bolaga xos bo'lgan tug'ma kuch va qobiliyatlar ko'rsatkclarini tabiiy tartibga muvofiq odam kamolotining abadiy va o'zgarmas qonunlariga muvofiq holda muntazamlilik bilan mashq qildirib, o'stirish kerak.

Elementar ta'lim nazariyasi. Pestalotssi nazariyasiga ko'ra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin tobora murakkabroq darajaga ko'tarilib borishi lozim.

Pestalotssining elementar ta'lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, mehnat tarbiyasini, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o'qitishni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning mana shu jihatlarini Pestalotssi bir-biriga bog'lab olib borishni taklif qildi, mana shunday tarbiyalash natijasidagina insonning hamma jihatlarini bir-biriga uyg'un bo'lib kamol topishini ta'minlash mumkin, dedi.

Jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasi. Pestalotssi bolaning barcha jismoniy kuchlari va imkoniyatlarini³² o'stirishni ularni jismoniy jihatdan tarbiyalashning maqsadi deb, bolaning harakatga, o'ynashga, bir joyda o'tirib qolmaslikka, hamma narsaga yopishishga, hamisha harakatda bo'lishga majbur qiluvchi tabiiy intilishini jismoniy tarbiyalashning asosi, deb hisobladi.

Pestalotssi inson shaxsini kamolotga yetkazishda jismoniy tarbiyaga juda katta ahamiyat beradi va uni bolalarning o'sishiga kattalarning oqilona ta'sir ko'rsatishining birinchi turi, deb hisobladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, o'qitishni unumli mehnat bilan qo'shib olib borish Pestalotssining pedagogik tajribasi va nazariyasidagi asosiy qoidalardan biri bo'ldi. Pestalotssining fikricha ("Lingard va Gertruda" romanida yozilishicha) maktabda bolalar kun bo'yi yigirish va to'qish dastgohlarida ishlash bilan vaqt o'tkazadilar; maktab huzurida yer uchastkasi bo'lib, bu uchastkada har bir bola o'ziga ajratib qo'yilgan paykaldagi ekinlarni parvarish qiladi, chorva mollarini parvarish qiladi. Bolalar zig'irpoya tolasini va junni ishlashni o'rganadilar, qishloqning eng yaxshi xo'jaliklari bilan, shuningdek, hunarmandchilik ustaxonalari bilan ham tanishadilar. O'qituvchi ish vaqtida, shuningdek, ishdan bo'sh vaqtlarida bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazadi, ularga savod, hisob va turmush uchun zarur bo'lgan boshqa bilimlarni o'rgatadi. Pestalotssi odamning kamolotga yetishi uchun mehnat tarbiyasining ahamiyati katta ekanini uqtirib o'tdi. U ish vaqtida "bolalarning ko'nglini xushvaqt qilish va aqlini o'stirishga" intildi. Shuningdek, u mehnatkashlarning bolalarini kelgusida, "industriya"da, sanoat korxonalarida ishlashga tayyorlashga harakat qildi.

Axloqiy tarbiya. Pestalotssi tarbiyaning asosiy vazifasi — kelgusida ijtimoiy hayotda qatnashib foyda yetkaza oladigan va hamma jihatlarini uyg'un bo'lib kamol topgan inson yetishtirishdir, deb biladi. Bolani boshqalarga foyda keltiradigan ishlarda muttasil mashq qildirish yo'li bilan uning axloqi voyaga yetkaziladi. Pestalotssining fikricha, bola organizmining kundalik ehtiyojlarini qondirish asosida bolada onaga nisbatan tug'ilayotgan mehr-muhabbat axloqiy tarbiyaning eng oddiy elementidir. Bolaning axloqi uchun oilada negiz solinadi. "Ota-onaning uyi, — deydi Pestalotssi, — axloq maktabidir!". Bolaning onaga bo'lgan muhabbati asta-sekin oilaning³³ boshqa a'zolariga ham o'tadi.

Aqliy ta'lim. Pestalotssining aqliy ta'lim to'g'risidagi ta'limoti boy va mazmunli ta'limotdir. Pestalotssi o'zining insonning hamma jihatlarining bir-biriga uyg'unlashib kamolga yetishi to'g'risidagi asosiy g'oyasiga tayanib, aqliy ta'limni

axloqiy tarbiya bilan bog‘lab olib borish kerakligini ko‘rsatadi va tarbiyalovchi ta’lim olib borishni talab qiladi.

Har qanday ta’lim kuzatishga va tajribaga asoslanishi hamda xulosalar va umumlashmalar darajasiga ko‘tarilishi lozim, deydi Pestalotssi kuzatishlar natijasida bolada ko‘rish, eshitish sezgilari va boshqa sezgilar hosil bo‘ladi, bu sezgilar bolada fikrlash va so‘zlash ehtiyojini tug‘diradi, deydi.

Odamning sezgi a'zolari yordamida tashqi dunyo to‘g‘risida hosil qilgan tasavvurlari dastlab ravshan va aniq bo‘lmaydi. Ta’limning vazifasi ham shundan iboratki, u mana shu tasavvurlarni tartibga solishi va aniqlashi, ravshan tushunchalar darajasiga yetkazishi, “tartibsiz tasavvurlarni ravshan tasavvurlarga va ravshan tasavvurlarni ochiq ko‘rinib turgan tasavvurlarga” aylantirishi kerak. Ta’lim, birinchidan, o‘quvchida o‘zining sezgi a'zolari vositasi bilan hosil qilgan tajribalar asosida bilimlar zahirasini to‘plashga yordam beradi, ikkinchidan, bolaning aqliy qobiliyatlarini o‘stiradi.

Pestalotssi ta’limning har bosqichi uchun maxsus ravishda tanlab olingan, har bir bolaning o‘ziga xos aqliy kuchlarini hamda qobiliyatlarini tinimsiz va muntazam ravishda o‘stirib boradigan tizim vositasi bilan bolalarga aqliy ta’lim berishga intildi.

Pestalotssi ta’limni soddalashtirishga va psixologiya negiziga qurishga intilib, narsalar va buyumlar to‘g‘risidagi har qanday bilimning eng oddiy elementlari bor, odam shu elementlarni o‘zlashtira borib, o‘z atrofidagi olamni bilib oladi, degan fikrga keldi. U son, shakl va so‘zni mana shunday elementlar deb hisobladi. O‘qitish jarayonida bola o‘lchash yo‘li bilan shaklni, hisoblash va nutqni o‘stirishdan iborat bo‘ladi. Pestalotssi o‘z zamonidagi boshlang‘ich maktabda o‘qitishning mazmunini tubdan o‘zgartiradi, o‘qitiladigan darslar qatoriga o‘qish, yozish, arifmetikani va geometriyaning boshlang‘ich qismlarini, o‘lchash, rasm chizish, ashula, gimnastika, shuningdek,³⁴ geografiya, tarix va tibbiyotga doir eng zarur bilimlarni kiritdi. Shunday qilib, Pestalotssi boshlang‘ich maktabning o‘quv rejasini ancha kengaytirdi va bu maktabda o‘qitishning yangi metodikasini vujudga

keltirdi. O'qitish metodikasi bolalarni bilimlar bilan boyitishga hamda ularning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Pestalotssi ko'rsatmalilik prinsipini ta'limning eng muhim negizi deb hisoblaydi. Bu prinsipni keng ravishda qo'llamasdan turib, tevarak-atrof to'g'risida to'g'ri tasavvur hosil qilishga, tafakkurni va nutqni o'stirishga erishib bo'lmaydi.

Pestalotssi maktab bolalarining qobiliyatlarini o'stirishi, ularga bilim berishi bilan bir qatorda, ularda ko'nikma va malakalar tarbiyalashi va lozim, deb hisobladi. Kishining kamolga yetgan aqli va oliyhimmat qalbi talab qilgan narsalarni ro'yobga chiqarish uchun harakat qila bilishiga bog'liqdir.

Boshlang'ich ta'limning xususiy metodikalarini yaratish.

Pestalotssi o'zining umumiy didaktik qoidalariga tayanib, boshlang'ich ta'limning xususiy metodikasi asosini yaratib berdi.

Pestalotssi ona tili o'qitishning asosiy vazifasi bolaning nutqini o'stirish va uning so'z boyligini orttirishdan iborat bo'lishi lozim, deb hisobladi. Pestalotssi savod o'rgatishda tovush metodini birinchi o'ringa qo'ydi, bunday qilish harflarni qo'shib o'qitish metodi hukmronlik qilib turgan o'sha vaqt uchun g'oyat muhim edi.

Pestalotssi ona tili o'qitishni ko'rsatmali prinsip asosida olib borish va bollarga tabiiyot, geografiya va tarixga doir elementar ma'lumotlar berib, shu tariqa bolalarning so'z boyligini orttirish to'g'risida qimmatli ko'rsatmalar berdi.

Pestalotssi zeriktirarli va bir xildagi mashqlar qildirish bilan bolalarda kuzatish, narsa yoki hodisaning belgilarini aniqlay olish malakasini o'stirishga, biror narsani aniq va to'la tasvirlab bera olish malakasini hosil qilishga intildi.

Bolalarda yozuv malakasini hosil qilmoq uchun Pestalotssi dastlab to'g'ri va egri chiziqlarni — xatlarning elementarlarini chizdirib, mashq qildirishni tavsiya etdi. Pestalotssi yozuv o'rgatishni narsalarni o'lchash va suratni chizish bilan shuningdek, nutqni o'stirish bilan³⁵ bog'lab olib borishni taklif qildi.

O'lchashni o'rgatmoq uchun Pestalotssi dastlab to'g'ri chiziq chizishni, so'ngra burchak, kvadrat chizishni va bu kvadratni bo'laklarga (yarimta, chorakta qilib va hokazo) bo'lishni o'rgatishni taklif qildi. Tarbiyachi bolalarga turli

geometrik jismlarni ko'rsatish va ularning nomlarini aytib berishi lozim. Bolalar bu geometrik jismlarni kuzatib, ularning xossalari va nomlarini o'zlashtirib oladilar, ularni o'lchashni o'rganadilar.

Bola o'lchov natijalarini chizib va yozib olishi lozim; bunday mashqlar bolaga yozuv o'rgatishning asosidir.

Pestalotssi pedagogika nazariyasi va tajribasining ahamiyati. Pestalotssi ko'zga ko'ringan nazariyotchisi va amaliyotchi edi.

Pestalotssi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini bir-biriga uyg'un qilib o'stirishdek vazifani tarbiyaning asosiy vazifasi deb bildi. U elementar ta'lim nazariyasini yaratdi, bu nazariya dogmatik ta'limga, ya'ni ma'nosini tushunmay yodlashga qarshi olib borilgan XIX asrda xalq maktabini rivojlantirishga yordam bergan kurashda katta rol o'ynadi. U bolani jismoniy tarbiyalash, mehnatda tarbiyalash, axloqiy va aqliy tarbiyalash to'g'risida juda qimmatli fikrlarni aytib o'tdi. Pestalotssi boshlang'ich maktabda beriladigan bilimlarning mazmunini kengaytirishni talab qildi, boshlang'ich maktabni xalqqa yaqinlashtirishga, uni xalq ommasining turmushi va ehtiyojlari bilan chambarchas bog'lashga intildi, bolalarni mehnatga o'rgatishga, ularni turmushga tayyorlashga katta e'tibor berdi.

Iogann Fridrix Gerbart Germaniyada tug'ildi. Gerbart dastlab lotincha klassik maktabda, so'ngra esa Ien universitetida o'qidi.

Gerbart universitetni tamomlagach, shveytsariyalik bir aristokrat oilasida tarbiyachi bo'lib ishladi. 1800 yilda u Pestalotssining Burgdorf institutiga bordi.

Lekin u ulug' pedagogning demokratik qarashlarini o'zlashtira olmadi.

1802 yildan boshlab Gerbart Gyottingen va Kenigsberg universitetlarida professor bo'lib ishladi. Gerbart bu universitetlarda o'zining pedagoglik faoliyatini kengaytirib yubordi: psixologiya va pedagogikadan leksiylar o'qidi, o'qituvchilar tayyorlash seminariyalariga rahbarlik ³⁶qildi. U seminariya huzurida tajriba maktabi ochib, o'zi bu maktabda matematikadan dars berdi.

Gerbart o'zining "Tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan umumiy pedagogika" (1806), "Psixologiya darsligi" (1816), "Psixologiyani pedagogikaga

tatbiq qilish to'g'risidagi xatlar" (1831), "Pedagogikaga doir leksiylar ocherki" (1835) degan kitoblarida pedagogikaga doir g'oyalarini keng bayon qilib berdi.

Tarbiyaning mohiyati, maqsadi va vazifalari. Gerbart tarbiya maqsadini belgilab olishga katta ahamiyat berdi. U tarbiyaning maqsadi yaxshi fazilatli kishini tarkib toptirishdan iborat, deb hisoblaydi. Gerbart shu maqsadni abadiy va o'zgarmas deb hisoblab, odamlarni mavjud munosabatlarga moslasha oladigan, o'rnatilgan huquq tartibini hurmatlaydigan, shu tartibga itoat qiladigan kishilar qilib tarbiyalashni ko'zda tutdi.

Pedagog o'zi tarbiyalayotgan bolaning oldiga shunday maqsad qo'yishi lozimki, bola ham o'sib katta bo'lganidan keyin o'z oldiga shunday maqsadlar qo'ya bilsin. Mana shu bo'lajak maqsadlar: 1) ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlar va 2) zarur maqsadlar deb ikkiga bo'linishi mumkin.

Odam bir vaqti kelib muayyan ixtisos sohasida o'z oldiga qo'yishi mumkin bo'lgan maqsadlar ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlardir.

Zarur maqsadlar deb shunday maqsadlarga aytiladiki, bu maqsadlar odamga o'z faoliyatining har qanday sohasida kerak bo'ladi.

Tarbiya ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlarni o'z oldiga qo'ygach, u odamda xilma-xil, har tomonlama idrok qilish qobiliyatini o'stirishi, qiziqish doirasini kengaytirishi va to'laroq qilishi lozim, mana shuning o'zi ichki erkinlik g'oyasiga, takomillik g'oyasiga muvofiq bo'lib tushadi. Zarur maqsadlarga kelganda tarbiya bo'lajak arbobning axloqini xayrixohlik g'oyasi, huquq va adolat g'oyasi asosida tarkib toptirishga yoki Gerbartning so'zi bilan aytganda, bu arbobda barqaror axloqiy xarakter vujudga keltirishga majburdir. Gerbart tarbiyaning mohiyati bolaning ko'nglini tasavvurlar bilan boyitishdan iborat deb hisoblab, bolaga fazilatli xulq g'oyalarini va sabablarini singdirishni va shu asosda unda axloqiy xarakter vujudga keltirishni istaydi.

Gerbart tarbiya jarayonini boshqarish³⁷, o'qitish va axloqiy tarbiya berish, deb uch bo'lakka bo'ladi.

Boshqarish o'z oldiga bolaning kelajagini emas, balki hozirgi vaqtning o'zida, ya'ni tarbiya jarayonining o'zida tartib saqlab turishni vazifa qilib qo'yadi. Gerbart "yovvoyi sho'xlik" bolalarga xos bir narsa deb hisoblab, boshqarish ana

shu “yovvoyi sho‘xlik”ni yo‘qotishi lozim deydi. Boshqarish tashqi tarbiyani saqlab turishi bilan tarbiyalanish uchun shart-sharoit vujudga keltiradi. Lekin boshqarishning o‘zi tarbiyalamaydi, balki tarbiyalashning mutlaqo zarur shartidir, xolos, deydi.

Gerbart boshqarishda xilma-xil jazolar sistemasini batafsil ishlab chiqdi. Jumladan: po‘pisa va nazorat qilish, buyruqlar berish, taqiqlash va tan jazosi kabilar.

Gerbart bu metodlardan aniq, to‘g‘ri va adolatli foydalanilsa bolalar tarbiyasida yaxshi natijalarga erishishi mumkin, bolalarni boshqarish vositalari ichida tan jazosi berish metodi asosiy o‘rinni egallaydi, deb ta’kidlaydi.

Gerbart tarbiya ishida aqliy ta’limga katta ahamiyat berdi. U ta’limni tarbiyaning eng katta va asosiy vositasi deb hisobladi. Gerbart pedagogikaga tarbiyalovchi ta’lim terminini kiritdi. Ta’limsiz tarbiya bo‘lmaydi, deydi u. Gerbart tarbiyalamaydigan ta’limni tan olmaydi. Ammo Gerbart o‘zidan oldin o‘tgan pedagoglarning, jumladan, Pestalotssining tarbiyalovchi ta’lim to‘g‘risidagi qimmatli g‘oyasini takomillashtirdi.

Gerbartning fikricha, ta’lim qiziqishlarning ba’zilari tevarak-atrofdagi voqeyelikni bilishga, ba’zilari ijtimoiy hayotni bilishga intiladi.

Gerbart turli qiziqishlarni oltita mustaqil turga bo‘ladi. U quyidagi qiziqishlarni birinchi guruh qiziqishlar qatoriga kiritadi: imperik qiziqish — fikr yuritishga yo‘llaydi; estetik — qiziqish bu hodisalarga badiiy baho berishni ta’minlaydi. Quyidagi qiziqishlar ikkinchi, guruh qiziqishlar qatoriga kiradi: yoqtiruvchi qiziqish — bu qiziqish o‘z oila a’zolariga va juda yaqin tanish-bilishlariga qaratilgan qiziqishdir; ijtimoiy qiziqish — odamlarning kengroq doirasini, jamiyatni, o‘z xalqini bilishga qaratilgan qiziqishdir. Gerbartning fikricha, odamzod o‘z tarixining boshlang‘ich davrida bolalarga va o‘spirinlarga xos narsalarga va faoliyat turlariga qiziq³⁸qan. Shu sababli deydi u, — o‘quvchilarga qadimiy xalqlar tarixi va adabiyoti doirasidan olingan va tobora murakkablashib boradigan gumanitar bilimlar berish kerak.

Gerbart qadimiy tillarga va matematikaga ham juda yuksak baho berdi, shu bilan birga, u matematikani asosan tafakkurni o‘stirish vositasi deb, “ruh uchun kuchli gimnastika” deb hisoblaydi.

Gerbart maktab tizimi masalasini o‘zining konservativ ijtimoiy qarashlariga muvofiq hal qilishga urindi. U maktablarning quyidagi tiplarini: elementar maktab, shahar maktabi va gimnaziyaning taklif qildi. Maktablarning bu tiplari bir-biriga bog‘liq emas, ularning har qaysisi mustaqil yashayveradi: elementar maktab va shahar maktablaridan maxsus maktablarga o‘tish mumkin, gimnaziyadan esa oliy o‘quv yurtlariga o‘tish mumkin. Klassik gimnaziya ta’limi Gerbart zamonidayoq o‘z umrini tugatib qolgan bo‘lsa ham, lekin Gerbart bu ta’lim tizimini qizg‘in yoqlab chiqdi. Uning fikricha, savdo-sotiq, sanoat, hunar-kasb va hayot uchun amaliy ahamiyati bo‘lgan boshqa xil ishlar bilan shug‘ullanishi lozim bo‘lgan kishilarga real maktabda o‘qib tarbiyalanishi kerak. Aqliy mashg‘ulotlar, rahbarlik va boshqaruv ishlari bilan shug‘ullanishi lozim bo‘lgan kishilar, ya’ni jamiyatning intizomli tabaqalari esa Gerbartning fikricha, faqat klassik gimnaziyada o‘qib ta’lim olishi lozim.

Gerbart ta’lim bosqichlari nazariyasini ishlab chiqdi, bu nazariya hamma mamlakatlarning pedagoglari orasida keng tarqaldi.

Gerbart ta’limni tasviriyl ta’lim, analitik ta’lim, sintetik ta’lim deb uch turga bo‘ldi.

Tasviriyl ta’lim cheklangan tarzda qo‘llaniladi, lekin o‘z chegarasi doirasida uning ahamiyati juda katta. U bolaning tajribasini aniqlab olishni va bu tajribani to‘ldirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. O‘qituvchi materialni jonli, obrazli hikoya qilib berish yo‘li bilan o‘quvchilarning bilimlarini kengaytiradi. Bunda ko‘rsatmali vositalar katta rol o‘ynaydi.

Analitik ta’lim “ayni bir vaqtda atrofni o‘rab turgan” narsalarni ayrim narsalarga, bu narsalarni esa tarkibiy³⁹ qismlarga, bu tarkibiy qismlarni ham belgilarga bo‘lish vazifasini o‘z oldiga qo‘yadi. Bolalar maktabga kelganlarida ularning boshlarida juda ko‘p tasavvurlar bo‘ladi. Vazifa shuki, o‘qituvchi

rahbarligida o'quvchilarning bu fikrlari bo'laklarga ajratilishi, tuzatilishi va takomillashtirilishi lozim.

Sintetik ta'lim, asosan, yuqori sinflarda qo'llaniladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilar ekan, uni tasvirlab berish bilan cheklanib qolmaydi, balki umumiy xulosalar chiqaradi, o'quvchilarga bo'lak-bo'lak holda ma'lum bo'lgan, ularning ongida bir-biridan alohida-alohida turgan turli tasavvurlarni bir butun holga keltirib, taqrib qiladi. Gerbart sintetik ta'limga katta ahamiyat beradi.

Gerbartning fikricha, tasvir, tahlil va taqrib o'quv jarayonida birin-ketin kiritiladigan va birining o'rnini ikkinchisi izchillik bilan almashtirib turadigan, bir-biridan ajratib qo'yiladigan qandaydir ta'lim metodlar emas. Ta'lim jarayoni ta'limning shu uch usulida birlik bo'lishini ta'minlashi lozim.

Gerbart axloqiy ta'limning nihoyat darajada intelluktualizm ruhi bilan sug'orilgan tizimini ishlab chiqdi. Uning pedagogika tizimida o'qituvchining o'qitish vositasi bilan o'quvchi ongiga axloqiy tushunchalarni singdirishga katta ahamiyat beriladi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, Gerbart boshqarishni axloqiy tarbiyadan ajratdi, u faqat hozirgi vaqt uchun tartib o'rnatishi lozim bo'lgan boshqarishga nisbatan axloqiy tarbiyaning prinsipial farqini topishga urindi, lekin bunga ozroq bo'lsa-da, ishontirarli dalil topa olmadi, zotan bunday dalil topish mumkin ham emas edi. Chunki intizom tarbiyaning ham sharti, ham natijasidir.

Gerbart axloqiy tarbiya prinsiplari boshqarish prinsiplariga qarama-qarshidir. Boshqarish bolaning irodasi va ongini tartibga solib turadi. Axloqiy tarbiya tizimida esa tarbiyalanuvchida mavjud bo'lgan yaxshi belgilarning hammasi axloqiy tarbiya metodlariga tayanch bo'lishi lozim. Axloqiy tarbiya "tarbiyalanuvchining yaxshi xislatlarini chuqur ma'qullash vositasi bilan uning "o'z shaxsini" o'zining nazarida ulug'lashga" intilishi lozim. Tarbiyachi hatto yo'ldan ozgan tarbiyalanuvchining ham⁴⁰ yaxshi belgilarini topishi va bunga darhol erisha olmasa, umidsizlikka tushib qolmasligi zarurdir. Axloqiy tarbiya tizimida "bir uchqun shu ondayoq ikkinchi uchqunni chaqnatishi mumkin".

Gerbart axloqiy tarbiyaning o'ziga xos vositalari qatorida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi.

1. Tarbiyalanuvchini tiyib turish (bolani boshqarish, uni itoatkor bo'lishga o'rgatish — bu vositaga xizmat qiladi). Bolalar uchun xatti-harakat chegaralarini belgilab qo'yish kerak.

2. Bolani belgilab olish, ya'ni uni shunday sharoitga qo'yish kerakki, bu sharoitda u “quloq solmaslik og'ir kechinmalarga olib kelishini” faqat tarbiyachining ko'rsatmalaridangina emas, balki shu bilan birga o'z tajribasidan ham tushunib oladigan bo'lsin.

3. Xulqning aniq qoidalarini belgilab qo'yish.

4. Tarbiyalanuvchining ko'nglida “osoyishtalik va ravshanlik” bo'lishini ta'minlab turish, ya'ni “tarbiyalanuvchida haqiqatga nisbatan shubha tug'ilishi” uchun asos bermaslik.

5. Ma'qullash va sazo berib turish yo'li bilan bolaning ko'nglini “to'liqlantirib” turish.

6. Bolani “xabardor” qilib turish, ya'ni uning nuqsonlarini ko'rsatib va tuzatib turish.

Tajriba sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish

Bitiruv malakaviy ishni bajarish mobaynida quydagicha savolnomani Termiz shaxridagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qitubchilaridan 42nafari ishtirok etdi .

Savolnoma.

- 1.Sinf dars tizimining asoschisi kim?
- 2.O'qitish usullari ,shakllari to'g'risida nimalarni bilasiz ?
- 3.O'qitishning qanday usullaridan dars jarayonida foydalanasiz ?
- 4.”Buyuk didaktika asarini o'qiganmisiz ?
- 5.Asarni kim yozgan ?

samaradorligini aniqlash maqsadida Termiz shahridagi 3- umumiy o'rta ta'lim maktabida tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Ushbu maqsadda 12 soatlik

dars mashg'ulotlarini kuzatdik. Tadqiqot davomida kuzatish, anketa so'rovlari, suhbat, pedagogik eksperiment kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalandik. Anketa so'rovlarida jami 42 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirok etdilar.

№	Soni	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
		Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi
1	42	6	7	9	8	7	3
	% hisobida	31%	16%	34%	43%	35%	41%

So'rov

natijalari tahlili ko'rsatishicha,

boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan 6 nafari (31 %) Buyuk didaktika asari haqida ma'lumotga egalar. 9 nafar (34%) o'qituvchi umumiy holda fikr bildirdilar, qolgan 7 nafar (35 %) o'qituvchi esa hech qanday ma'lumotga ega emasliklarini ta'kidladilar.

II.BOB Yn Amos Komenskiyning Buyuk didaktika asari va uning urganish bosqichlari.

2.1. XVII-XX aslarda” Buyuk didaktika” asarining o’rni.

Chexoslovakiyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy pedagogika ilmining poydevorini qurgan, uning keyingi rivojlanish yo’llarini ko’rsatib bergan, o’zining ongli hayotini, amaliy pedagogik faoliyatini bolalarni o’qitish va tarbiyalashdek olijanob ishga bag’ishlagan ulug’ pedagogdir.

Buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy 1592 yil 28 mart «Ugorskiy Brod» degan joyda Moraviyada tegirmonchi oilasida dunyoga keladi. Uning oilasi ruhoniylar «Chex qardoshlari» jamoasiga tegishli bo’lib, bu jamoa Chexiyaning ozodligi uchun kurashuvchi vatanparvarlarni o’z atrofiga to’plagan edi.

Komenskiy ota-onasidan ajralib, ancha vaqt o’qiy olmaydi, 16 yoshida «Chex qardoshlari» jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o’qishga kiradi, bu yerda u tarbiya tizimining yomonligini, o’quv metodlarining yaramasligini ko’radi va tushunadi. «Men o’sha vaqtdayot tarbiya masalasida mamlakatimni orqada ekanligini ko’rdim. Men o’sha davridayoq fan va tarbiya hammaga tegishli bo’lishi kerakligi o’yladim»— degan edi Komenskiy. Maktabni tugatgach Xorborni universitetiga (Germaniyada) o’qishga kiradi, uni tugatgach Geydelberg universitetida ma’ruza kursini tinglaydi, bu universitetda o’sha davrda ilg’or professorlar ishlardi. Komenskiy Avstriya, Gollandiyada bo’lib iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmushni o’rganadi. Shuningdek, o’zining ilmi va dunyoqarashini kengaytiradi.

O’sha davrda urush alohida knyazliklar orasida tez-tez bo’lib turar edi. 30 yillik urush (1618—1648) davomida chex qardoshlari jamoasi o’zining mustaqilligi uchun kurashishi sababli nemis dvoryanlari tomonidan haydaladi. Haydaliş natijasida Komenskiy xotini va bolasidan juda bo’ladi. Qo’lyozmalari yo’qoladi.

«Chex qardoshlari» ko’chib kelib o’rnashgan Polshadagi Leshno shahrida Komenskiy qardoshlik maktabiga rahbarlik qiladi, u yerda gimnaziya tashkil etadi.

U o'zining qariyb 80 yillik umri davomida pedagogika, ta'lim-tarbiya, falsafa, ilohiyotga oid 250 dan ortiq asarlar, darsliklar yaratdi. Bulardan yiriklari: «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» (1631), «Buyuk didaktika» (1632), «Onalar maktabi» (1632), «Pansofiya maktabi» (1651), «Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari» (1953), «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» (1658) nomli asar va darsliklar. Shuningdek, logika, fizika, lotin tili, grek tili kabi kitoblar yozadi. Darsliklari hayotlik davridayoq ko'p tillarga tarjima qilinib, Komenskiyning nomini butun dunyoga tanitadi.

Komenskiy «Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash haqida hammaga talluqli maslahat» nomli 7 jildli katta asar yozdi (U hayot ekanligi vaqtida hammasi bo'lib 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jildlari esa faqat 1935 yilda topildi va Chexoslovakiyada chop qilindi). Bu asarida «Hammani va hamma narsada har tomonlama tuzatish»ning insonparvarlik va demokratik dasturini belgilab chiqdi va kishilik jamiyatini isloh qilish rejasini ilgari surdi.

«Buyuk didaktika» asarida «pan sofiya g'oyasini» (*pan* gerkcha — butun, hamma, *sofiya* — donolik, aqllilik) hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish» demakdir. Pan sofiyada u tabiat va jamiyat bilimlarining yig'indisini beradi. Maktab — bu muassasa, u yerda «Hammani har narsaga o'rgatmoq kerak» degan fikr ko'p marta takrorlanishini ko'ramiz.

Komenskiyning pansofiya ishi Angliyaning ilg'or kishilari tomonidan quvvatlanib, parlament tomonidan chaqiriladi. Komenskiy 1641 yili Angliyaga keladi, lekin grajdanlar urushi boshlanib ketib, bu ish qolib ketadi. Komenskiy duyoga tanilgandan so'ng hamma mamlakatlarga uni taklif eta boshlaydilar. Shvesiyada lotin tili darsligini va til o'qitish metodikasini tuzadi.

Komenskiy chex qardoshlari jamoasiga yepiskop qilib tayinlangach, 1648 yilda Leshnoga qaytib keladi. Jamoa tarqatilgandan so'ng u yana o'qituvchilik faoliyatini davom ettiradi. Bir necha⁴⁴ yil Vengriyada maktablarni boshqarada. «Vidimo'y mir v kartinkax», ya'ni «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» degan asar yozib, o'qish ishini rasmlar bilan olib borishni

ilgari suradi. Bunda «Yoshlarning xulq qoidasi», «Yaxshi tashkil topgan maktablarning qonuni» degan bir qancha pedagogikaga doir ishlari berilgan.

1656 yili Shved—polyak urushi vaqtida Leshnodagi chex qardoshlari jamoasi tor-mor qilinadi. Komenskiy Gamburgga qochadi. Undan Amsterdamba o'tadi. Shunda Gollandiya senatining buyrug'iga muvofiq uning asarlari to'plami bosilib chiqadi.

Komenskiy o'z vatanini juda sevar va uning mustaqilligi uchun kurash olib boradi. Uning ko'p asarlarida vatanparvarlik hissi aks etgan. U chex xalq poeziyasini yig'ib chex maqollar to'plamini tuzadi va o'z xalqining tilini saqlashga, sevishtga undaydi.

Komenskiyning dunyoqarashi. Komenskiyning dunyoqarashida uch xususiyat ta'sirini ko'ramiz.

1. Natur falsafasi. 16—17-asrlarda ingliz faylasufi — materialist Bekon sensualistik falsafa nazariyasini ilgari suradi. Komenskiy o'qitish jarayoniga shu pozisiyadan qaraydi. Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish bo'lmagan yerda bilish ham yo'q, deydi u.

2. Chex qardoshlari jamoasi diniy jamoa bo'lganligi uchun Komenskiy ham dindor ruhoniylir. Lekin Komenskiyning ruhoniyligi turmushga amaliy qarash bilan bog'liq edi.

3. Komenskiy dunyoqarashining ba'zi jihatlari Uyg'onish davri ta'sirida vujudga keladi. Odamlarga nisbatan muhabbat, hushchaqchaqlik, odamlarning yaxshilik yaratishiga ishonch bilan qarash, bularning hammasi o'rta asr odamiga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashga qarama-qarshidir.

Komenskiy tashqi obyektiv dunyoning hukm surishiga ishonadi. Dunyo bir butun. Dunyoda hamma narsa bir-biri bilan bog'liq. Ajralib qolgan narsa yo'q. Dunyo qarama-qarshiliklardan iborat. Dunyo qotib qolgan emas. U o'sishda, o'sish esa o'z qonuniyatiga ega. Qonuniyat borliqqa, ya'ni xudoga tegishli, deydi.

Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. «Buyuk didaktika»da o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi, o'qitish tabiat talabiga bo'ysunishi kerak, deydi. Bolaning

aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi. Masalan, bog'bon daraxtlarni parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. Xuddi shunday o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysinadi. O'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi. Tabiiylik prinsipida kishini tabiatning bir bo'lagi deb qarashi (xudo tomonidan bunyod etilmagan) tabiat qonunlari uning o'sishiga ta'sir etadi deyishi o'z davrida ilg'or sanaladi. Lekin kishi ijtimoiy borliq bo'lib, ijtimoiy qonun ta'sirida o'sadi.

Komenskiy, tarbiyachi boladagi iste'dodni o'stirishi kerak. Agar bola pedagogik ta'sirsiz yashasa, bu iste'dod tasodifan o'sadi. Kishi dunyoga kelganda kishiga xos iste'dodga ega bo'ladi. Xuddi olmadagi urug'ga o'xshab ba'zida ko'proq, ba'zida kamroq bo'ladi.

Komenskiy tarbiyaning tabiatga uyg'unlik masalasida hamma narsaning asosi 4 ta deydi. Masalan: Olam 4 narsadan yuzaga kelgan, ya'ni; yer, suv, havo, yorug'lik. Dunyoning rivojlanishi ham 4 qismga bo'linadi, bular: bahor, yoz, kuz, qish. Insonning rivojlanishi ham 4 davrga bo'linadi; go'daklik, bolalik, o'smirlik, yetuklik. Shuningdek ta'lim jarayoni ham 4 ga bo'linadi; maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim.

Umumta'lim g'oyasi. Komenskiy yashagan davrda hammani o'qishga tortish shart emas, qobiliyatli kishigina o'qishi kerak, degan g'oya mavjud edi. Komenskiy esa o'qishga hammaning tortilishini, hamma o'z ona tilida umum boshlang'ich ta'lim olishi kerakligini uqtiradi. Umumta'lim to'g'risida gapirganda ayollarni ham hisobga oladi. O'sha davrda xotin-qizlar uchun o'qish juda katta muammo edi, shunga qaramay, u bu masalani ilgari surdi.

Komenskiyning pedagogik nazariyasining yana bir qimmatli tomoni o'quvchilar bilim olish tushunchasiga ega. Oynani qanchalik chang bosgan bo'lsa ham, baribir kishi o'z aksini ko'rishi mumkin, albatta, toza oyna kishi aksini toza ko'rsatadi. O'qituvchining vazifasini oynadagi changni artib tashlash, ya'ni bilimni bola ongiga yetkazish, ani aqliy tomondan o'stirishdir, degan edi.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadini ko'rsatadi. Tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiya.

Bu maqsad bolaning tug'ilganidan to 24 yoshigacha amalga oshadi, bu davr ichida bola to'rt maktabni o'qib tugatishi, har birida 6 yil o'qishi kerak, deb hisoblaydi.

Komenskiyning bolani yosh davrlarga bo'lishi. Bunda u tabiiylik prinsipiga amal qilib, bola yoshini 4 davrga bo'ladi.

1. Tug'ilganidan 6 yoshgacha — ona maktabi. Bu davrda bolaning sezish organlarini o'stirishga, bolaning qabul qilishini, atrofdagi dunyo bilan tanishtirishga katta ahamiyat beradi. Bolani mehnatga o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilishga jalb etish kerak. Ona boladagi axloqiy tarbiyaning asoslarini, to'g'rilik, haqqoniylik, mehnatni sevish va boshqalarni vujudga keltiradi. Ona maktabi bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko'zda tutadi.

2. 6—12 yoshgacha — xalq maktabi yoki ona tili maktabi. Bunda o'quvchi esda saqlashi, so'zlashga o'rganishi, yozish, boshlang'ich maktab ko'nikmasini hosil qilishi kerak bo'lib, buning uchun geometriya, geografiya, tabiiyot fanlarini o'rganishi lozim.

3. 12—18 yoshgacha — gimnaziya. Bu o'quv yurtining vazifasi bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o'stirishdan iborat bo'lib, unda klassik tillar, tabiiyot bilimlari, axloq, ilohiy fanlar o'qitilishi kerak.

4. 18—24 yoshgacha — Universitet. Akademiya. Bu o'quv yurtlari o'quvchining irodasini, shaxsini bir butun o'stirishi kerak.

Shunday qilib, maktab Komenskiy⁴⁷ qarashicha o'quvchilarni o'ylashga, harakatlantirishga, masalalarni amalda mustaqil yecha bilishga, o'quvchilarni so'zlashga, o'z fikrini to'g'ri ifoda qilishga va isbotlab berishga o'rgatishi kerak.

Mehnat kishini ulug'laydi, deydi Komenskiy. Shuning uchun mehnatga ham yoshlikdan o'rgatish kerakligini ilgari suradi.

Komenskiyning pedagogik nazariyasida ta'lim-o'qitish, ya'ni didaktika katta o'rinni egallaydi. Bunda u tabiiylik usulini asos qilib oladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda bolaning yoshi, bilim darajasi, psixologik xususiyatlari hisobga olinib, darsni tabiat borlig'iga moslab olib borish kerak, degan g'oya ilgari suriladi.

Masalan: Qush o'ziga uya yasaydi, uya issiq va yumshoq bo'lishi kerak. Maktab ham xuddi shunday bo'lishi kerak.

Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida maktabda o'qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi.

1. Ko'rsatmalilik tamoyili;
2. Onglilik tamoyili;
3. Izchillik va tizimlilik tamoyili;
4. Mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash tamoyillari.

1. Ko'rsatmalilik tamoyili — Komenskiy ko'rsatmalilik tamoyilini nazariy jihatdan isbotlab, mufassal bayon qilib berdi. U bu prinsipni faqat ko'rsatib o'qitish usuli tariqasidagina emas, balki barcha sezgi organlarini narsa va hodisalarni asosli va yaxshi o'zlashtirib olishga jalb etish vositasi tariqasida keng ma'noda to'g'ri tushunadi.

Ko'rsatmalilikni o'qitishning «Oltin qoidasi» deb ataydi. Ko'rsatmalilik prinsipida: a) bolaga real narsalarni ko'rsatish, b) dunyoni rasmlar orqali tushuntirish, v) narsalar modelini ko'rsatish, g) o'qituvchining so'zi. Komenskiy «Mir chuvstvenno'x vehyey v kartinkax», ya'ni «Dunyodagi narsalarning rasmlarda aks etishi» asarida o'qitilayotgan, o'rganilayotgan narsalarni ushlash, ko'rish, yeyish, hidlash kerakligini aytib, bu o'rganilayotgan materialni chuqur bo'lishga va esda uzoq vaqt saqlanishiga⁴⁸ olib keladi, deydi.

2. Onglilik tamoyili. Komenskiy onglilik tamoyilini ilgari surar ekan, o'qitishda ma'no-mazmunini tushunmay, og'zaki yodlashga qarshi chiqadi. «Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingan narsadan boshqa hych bir narsani zo'rlab

yodlatmaslik lozim». O'quvchilar «O'rganilayotgan narsa kundalik hayotda qanday foyda yetkazishini o'qituvchi yordamida anglab olishlari kerak. Shu bilan hodisalarning sabablarini anglatmoq, har bir narsani to'la tushuntirib bo'lguncha, shu narsa ustida to'xtatmoq kerak» deb hisoblaydi.

3. Komenskiy ta'limning tizimli bo'lishini talab qiladi. O'qitilayotgan material o'quvchilarga asosiy qodilar tariqasida lo'nda bayon qilinishi kerak. O'qitishda dalillardan xulosalarga, misollardan qonunlarga o'tish, dalillar va misollarni qoidalar tizimiga solib, umumlashtirib berish lozim, aks holda hodisalarning tizimsiz uyumi hosil bo'lib qoladi. Konkretndan abstraktga, osondan qiyinga, umumiydan xususiyga o'tish kerak; avval narsa, ya'ni hodisaga umumiy tushuncha berib, keyin uning turli tomonlarini ayrim-ayrim o'rganish kerakligini ko'rsatadi.

Izchillik tamoyilida — fan asoslarini izchil bayon qilish va sistemali tarzda o'rgatish talab etiladi. Izchillik tamoyilida, kun, oy, yilga vazifa qo'yish va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytiladi. Bunda aniq vaqtni belgilash, o'qishning bola yoshiga mos bo'lishi, material izchillik bilan o'rganilishi, ya'ni bugungi material ertagi bilan bog'lanishi va keyingi o'tiladigan materialga yo'l ochish kerak.

Komenskiy materialni mustahkam, asosli o'zlashtirib olishlariga katta ahamiyat berib, «mustahkam asos» vujudga keltirish, o'qitilayotgan narsalarni bir-biriga bog'lagan holda olib borish lozim, deydi. Har bir mavzu qisqa, aniq qoidalar asosida berilishi kerak. O'tilgan materialni mashq qildirish va takrorlatish o'quvchilarning materialni mustahkam o'zlashtirishiga olib keladi. Takrorlangan dars materiali esda yaxshi saqlanib qoladi. Ovoz chiqarib takrorlashning foydasi ko'pligini ko'rsatadi. Mashqlar o'rnida bir qancha qoidalarni belgilab, takrorlash yo'llarini aniqlab beradi. O'qitishda taqrib bilan tahlilni bir-biriga qo'shib olib borish kerakligini ko'rsatadi.

Komenskiy maktablarda mashq qilish bilan yozishni, nutqni mashq qilish bilan gapirishni, ashulani mashq qilish bilan ashula aytishni, xulosalar chiqarib berish yo'li bilan xulosalar chiqarishni va shu kabilarni o'rgansinlar, toki maktab

ishi qizib turgan bamisoli bir ustaxona bo'lsin deydi. Shuningdek, u o'quvchilarning bilish qobiliyatini o'stirishga, bilimga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirishga va ilm ishiga bo'lgan g'ayratini oshirishga intildi.

Sinf — dars tizimi. Komenskiy o'qituvchi butun sinf bilan jamoa bo'lib ish olib borishini, ya'ni sinf — dars tizimida o'qitishni olib borishni tavsiya etdi. Komenskiy sinf — dars tizimini ishlab chiqadi. Dars vaqtida o'tgan darsni qaytarish, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish kerakligini ko'rsatadi. Darsni rejalashtirish va olib borish to'g'risida ko'rsatmalar beradi. Har bir darsning o'z mavzusi va o'z vazifasi bo'lishini aytadi. O'qituvchi o'quvchilarning dars mashg'ulotlarida faol qatnashishlarini ta'minlashi, kuzatib borishi, sinfda intizom saqlanishi kerakligini uqtiradi. O'quv jarayonini tashkil qilishni haddat tashqari oshirib yuborib, o'qituvchi bir vaqtda 300 o'quvchi bilan dars olib borishi mumkin, deb hisobladi. O'qituvchi o'ziga yaxshi o'quvchini yordamchi qilib olishi mumkinligini aytadi.

U maktabda o'quv yili va uni o'quv choraklariga bo'lish, ta'tillar berilishini kiritdi. O'quv kunini (ona tili maktabida 4 soat, lotin maktabida 6 soat) belgilab berdi. O'quvchilar maktabga bir vaqtda qabul qilinib, o'qish kuzda (sentyabrda) boshlanishi kerak, deb hisobladi.

Komenskiy darslik qanday bo'lishi to'g'risida qimmatli fikrlar aytib, o'z zamonasi uchun namunali bo'lgan bir necha darsliklar yozdi. O'zining nazariy fikrlarini darsliklarida amalga oshirdi. Darslikda o'quv materiali yetarlicha bo'lishi, qisqa, mazmunli, tushunarli, izchil berilishi kerak. Darslik oddiy, bolalarga tushunarli tilda yozilishi, rasmlarga boy bo'lishi kerak. Darslikdagi material muntazam tartib bilan joylashtirilishi, bolalarning yoshiga qarab ravshan bayon etilishi shart, deydi. Bu fikrlarni o'zining «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» va «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» kabi darsliklarida bayon etadi.

«Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» darsligini o'zining didaktik tamoyillariga amal qilgan holda tuzdi. Darslik turli sohalarda bolalar tushuna oladigan bilimlar bilan tanishtiradi.

«Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari»ni boshlang'ich bilimlarning bolalar uchun yozilgan ensiklopediyasi deyish mumkin. 150 ta suratlar bilan berilgan qisqa maqolada tabiat haqida (olam, geografiyaga doir, o'simliklar, hayvonlar, inson tanasi haqida), odamning faoliyati haqida (kasb-hunar, qishloq xo'jaligi, madaniyat), ijtimoiy hayot haqida (davlat boshqarmalari, sud haqida) ma'lumotlar beradi. Bu kitob ko'p tillarga tarjima qilindi, boshlang'ich ta'lim uchun 150 yildan ko'proq yaxshi darslik sifatida xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiya. Intizom. Komenskiy yoshligidan boshlab bolada axloq va odob hosil qilish kerakligini aytadi. Mardlik, o'zini tuta bilish, chidamlilik, vaqt va vaziyat talab qilganida foyda yetkazishga tayyor bo'lib turish, burchni ado qilish kabi xislatlar fazilatdir. Shu asosiy fazilatlardan tashqari kamtarlik, mo'min-qobillik, kishilarga xayrixohlik, pokizalik, puxtalik, xushmuomalalik, kattalarni hurmatlash, mehnatsevarlik xislatlarni tarbiyalashni ham muhim vazifa, deb hisoblaydi.

U quyidagilarni axloqiy tarbiya vositalari deb biladi: a) ota-ona, o'qituvchi, o'rtoqlarining namunasi; b) bolalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ular bilan suhbatlar o'tkazish; v) bolalarni yaxshi xulqqa o'rgatishda mashqlar o'tkazish, yalqovlik, o'ylamay ish qilishga, intizomsizlikka qarshi kurashish.

Komenskiy intizomning katta ahamiyati borligini ko'rsatib, «Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmondur» degan chex maqolini keltiradi. O'rta asr maktablarida kaltak vositasi bilan o'rnatiladigan intizomga u qarshi chiqadi. Bolalarga insoniy muomalada bo'lishni tavsiya etadi. Intizom: o'qituvchining namuna ko'rsatishi, samimiy, ochiq xayrixohligi, o'qituvchining bolaga bo'lgan to'g'ri munosabati (agar u bolani sevsa, uning yaxshi bo'lishini istasa, darsi mazmunli bo'lsa, tushuntira olsa intizomlilik vujudga keladi), bolani ko'pchilik oldida, o'rtoqlari o'rtasida oqilona maqtash yoki qoralash intizomlilikka olib keladi, deydi.

O'qituvchining o'рни va unga qo'yiladigan talablar. Komenskiy o'z davrida iste'dodsiz, ma'lumotsiz o'qituvchilarni qattiq tanqid etdi. O'qituvchilikni «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli

kasb» deb hisobladi. Bu o'qituvchiga nisbatan yangi ilg'or qarash edi, chunki o'sha davrda o'qituvchilik kasbga hurmat bilan qaralmas edi. Komenskiy aholining o'qituvchiga hurmat bilan qarashini talab etishi bilan o'qituvchining o'zi jamiyatda muhim vazifani bajarayotganini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi lozimligini uqtiradi. O'qituvchi sof vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli bo'lishi, o'z ishini sevishi, o'quvchilarga otalardek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug'dirishi lozim. «O'zi» namuna ko'rsatib, o'quvchilarni o'ziga ergashtirishi o'qituvchining birinchi vazifasidir, degan edi.

Shunday qilib, taniqli slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy butun dunyoda pedagogika ilmiga asos solib, maktab taraqqiyotiga, pedagogik ilmiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uni ko'p G'arbiy Yevropa mamlakatlari maktab ishini yaxshilash maqsadida taklif etdilar. Uning darsliklari ko'p tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham tarjima etildi. 150 yildan ortiq vaqt davomida uning yozgan asarlari boshlang'ich ta'lim uchun darslik sifatida xizmat qildi. Mashhur nemis olimi Leybnis qayd qilib o'tganidek, falsafani taraqqiy ettirishda Kopernik qanday rol o'ynagan bo'lsa, pedagogikani taraqqiy ettirishda Komenskiy ham shunday rol o'ynadi.

Komenskiyning pedagogikasi ilmiy pedagogik bo'lib, jahon madaniyatiga qo'shilgan katta hissadir. Uning qarashlari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

XV-XVII asrlarda xalq ommasining feodal dvoryanlarga hamda feodalizmning ideologiya sohasidagi tayanchi bo'lgan katolik cherkoviga qarshi kurashi keskinlashdi. Bu nurash diniy demokratik sektachilik harakati shaklida moydonga keldi.

Chexiyadagi taboritlar harakati mana shunday demokratik sektachilik xarakatining mahsulotlaridan biri edi. Bu xarakat Tabor shahrida vujudga keldi va Taboritlar harakati deb ataldi. Ular shaxs⁵² mulkini inkor etib hamma narsa umumiy bo'lishi lozim degan g'oyani ilgari surdilar.

XV asrning birinchi yarmida (1618-1648) ular chex krestontlari tomonidan qo'shni mamlakatlarga haydab yubordilar. Buyuk chex pedagogi Yan Amos

Komenskiy 1592 yil ana shunday ijtimoiy sharoitda dunyoga keldi. U jamoa chex qardoshlari hisobidan o'rta va oliy ma'lumot oldi. 1611 yilda Yan Amos Komenskiy Germaniyaning Geborn universitetiga, keldi. Bu yerda zamonaviy ilg'or programmalarda taniqli professorlar dars berar edi. Dars jarayonida falsafa, tabiiy fanlar, anatomiya, astronomiya kabi fanlari o'rganildi.

Universitetda yosh Yan Amos Komenskiyni yosh professor Iogann Gernix Alshed o'z bilimi bilan maftun etgan edi. Yanning nazarida Alsheddan doimo bilim bulog'i oqib turar edi. Bu yerda turli tabiiy fanlar to'g'risidagi kashfiyotlar haqida ma'lumot berar edi. Bu davrda ko'plab kashfiyotchilar unga zamondosh edi.

Ular: Jordano Bruno, u diniy ta'limotga qarshi chiqdi, 1604 yilda G.Galiley erkin tushish qonuni, 1608 yilda Gollandiyada binokl ixtiro kilindi. So'ngra Kepler teleskopni ixtiro qildi, 1628 yilda shotlandiyalik Ulyam Garviy kichik va katta qon aylanish sistemasini isbotladi. 1635 yilda esa kardinal Rishel Fransiya akademiyasiga asos soldi. Frenses birinchi bo'lib Aristotelning sxolastik falsafasini inkor etdi. U diniy e'tiqod bilan fanning chegarasini ko'rsatib berdi. Benon fanda akl idrok, kuzatish his etish va amaliy tajribaga tayanadi. Bu davrda Tomaza Kompanella «Quyosh shahri» asari yozilgan edi. Ikki yildan keyin Yan Amos Komenskiy universitetni Yevropa bo'ylab sayoxat bilan tugatdi. O'z davridagi ijtimoiy siyosiy hayot, undagi nohaqliklar, agressiy bosqinchiliklar, oddiy xalqning ezilishi Yan Amos Komenskiyning dunyoqarashini shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Uning dastlabki asari hisoblangan «Samoga xat»da dvoryanlar, arestokratlar tomonidan ezilgan oddiy xalkning arzini bayon etadi. Maxsus xat Iusus Xristosga yo'llangan bo'lib, insoniyatning feodal tuzumiga nisbatan arz dodi, bayon etiladi.

U o'zining «Xat» nomli asarida ezilgan, xo'rlangan, qadri qiymati poymol etilgan xalqqa Xristos nomidan javob⁵³ maktubini yozadi.

Jamiyatdagi notekisliklarni, ijtimoiy noxakliklarni yashash darajasini o'zgartiruvchi kuchni Yan Amos Komenskiy bilim olishda deb biladi.

Ongli mavjudot bo'lish demak tadqiqot etish, aniqlash, oldindan ko'ra bilish, ya'ni olamda mavjud bo'lgan narsalarni tushunishdir yana u «Olloh insonni bu dunyoda yaratar ekan, uning sirlari bilan tanishtirib o'tirmaydi. Chunki uning o'zi tanishib olishi uchun unga aql idrok berdi - deydi. U insoniyatga murojaat qiladi. O'zlaringizni bilimli qilish uchun kurashingiz! Axir nodonlikdan yana va yana yomonlik kelib chiqadi».

Yan Amos Komenskiy inson eng mukammal, eng go'zal mavjudod «Ajoyib mikrokosmosdir» deb ta'lim berdi.

Yan Amos Komenskiy maktabni insonparvarlik ustaxonasi deb ataladi.

Yan Amos Komenskiy shaxs kamolatining tabiatga uyg'unligi haqida.

Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida shaxs kamoloti tabiatga uyg'un bo'lishi degan g'oyani ilgari suradi. Ushbu g'oya ilk bor ilgari surilgan edi.

Yan Amos Komenskiy inson tabiatning birismi va tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy umumiy qoidalariga bo'ysunadi, deb hisoblanadi. Yan Amos Komenskiy «Maktabning aniq tartibini tabiatdan olmoq kerak» deydi.

Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin, uning xotirasiz hamma narsani qamrab oladi, tiklaydi, lekin hych qachon to'lib toshib ketmaydi.

Komenskiy tarbiya jarayonidagi xar bir pedagogik muammoni dalillar keltirish yuli bilan isbotlash usulini kiritdi va tarbiyaning umumiy konuniyatini ta'riflab berishga urindi.

Komenskiyning asarlarida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risida gapirar ekan, tabiat qonuniyatlari asosida bola yoshini davrilarga bo'lishini amaliy jaryonda isbotlab berdi.

Yan Amos Komenskiy sinf dars sistemasi va uning ta'lim mazmuniga oid qarash.

Komenskiy inson tabiatiga asoslanib, yosh buguning umrini xar qaysisi 6 yoshdan bo'lgan davrga ajratadi:

54

- I. Gudaklik davri – 0 – 6 yosh ona maktabi «Onalar maktabi»
- II. Bolalik davri 6 – 12 – yosh ona tili maktabi «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi»

III. O'smirlik davri – 12 – 18 yosh lotin maktabi Gimnaziya «Hislar vositasi bilan anglanadigan narsalarning suratlari»

IV. Yetuklik davri – 18 – 24 yosh Akademiya.

Komenskiy uzluksiz ta'lim tizimini ishlab chikdi va sinf dars sistemasiga asos soldi. Bir xil yoshda, bir vaktida o'qitish, o'quv yilini chorak va ta'tillarga bo'lish tuzumini ishlab chikdi. Shaxsni jamoatda tarbiyalash g'oyasini ilgari surdi.

Lotin maktabi: 6 yil.

S i n f l a r.

- | | |
|---------------|---------------|
| 1. Gramatika | 4. Axlok |
| 2. Fizika | 5. Dialektika |
| 3. Matematika | 6. Ritorika |

A k a d y e m i y a

- | | | |
|--------------|------------|-------------|
| 1. Geologiya | 2. Yuridik | 3. Medisina |
|--------------|------------|-------------|

Yan Amos Komenskiy mazkur ta'lim tizimiga mo'ljallab bir qator zamonaviy ta'lim mazmuniga oid darsliklar yaratdi.

Bular «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» (1631), «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» (1658),

Komenskiy darslik qanday bo'lishi lozimligi haqida bir qancha qimmatli nazariy fikrlarni aytdi va o'z zamoni uchun namunali bo'lgan bir necha darslik yozib, o'zining shu nazariy fikrlarini amalda ruyobga chikardi.

Komenskiyning didaktika va axloqiy pedagogik g'oyalari.

Komenskiy ta'lim jarayonida hislar vositasiga asoslanish lozim, deb sensualistik falsafa degan g'oyani ilgari surdi. Bunda hislar orkali bolada tafakkur shakllanishini nazariy jihatdan asoslab berdi.

Komenskiy ko'rsatmalikni didaktikaning eng muhim prinsiplardan biri sifatida ishlab chiqib, katta xizmat⁵⁵ ko'rsatdi. O'z darsliklarini suratlar bilan ta'minladi.

U dogmatik ta'lim mazmuni va sxolastik o'qitish uslubiga qarama-qarshi bo'lgan onglilik prinsipining ilgari surdi. Uning fikricha, hodisalarni o'rganish chog'ida shu hodisalarning sababini o'quvchilar to'la suratda anglamoq kerak.

Komenskiy ta'limni sistemali bo'lishni talab qiladi. O'qitishda fanlardan xulosalarga, misollardan koidalarga o'tish lozim.

Onglilik prinsipi ta'lim mazmuni o'quvchilar yoshiga mos holda belgilash va boqiylikni bayon etish. O'qitishning puxtaligi prinsipiga asoslangan holda o'quvchilarning bilish bosqichlari, orqali tushunchasini shakllantirish.

Insonning o'zini-o'zi boshqarishi, Komenskiyning fikricha tarbiyaning uch maqsadidan biridir. Bunga axloqiy tarbiya vositasi bilan erishiladi deb, xisoblaydi. Komenskiy Aristotel va Platon yo'lidan borib, donishmandlik mo'tadillik, mardlik va odillikni asosiy kardional eng yaxshi fazilatlar deb hisoblaydi.

Komenskiy axloqiy tarbiyaga doir g'oyalarga o'zining «Buyuk didkatika», «Yaxshi yo'lga qo'yilgan maktab qonunlari» asarlarida asoslab berdi. Uning fikricha, maktabda axloqiy tarbiya yuqori doirasida borishi lozimki, toki maktablar «Insonlar tarbiyalanadigan ustaxona» degan nomga munosib bo'lsin. Maktabda axloqiy tarbiya berish uchun quyidagi qoidalarga amal qilishni taklif etadi:

- tarbiya jarayonida yaxshi fazilatlarni barchasini e'tibordan chetga koldirmaslik;
- axloqiy tarbiyaning yoshlikdan, donolikdan boshlash lozim;
- har qanday sharoitda mo'tadil bo'lishga o'rgatish;

Bunda quyidagi metodlarni tavsiya etadi:

1. Ota onaning shaxsiy namunasi
2. Qat'iy intizomga rioya qilish.
3. Pand nasihat
4. Nopedagogik muhitdan saklash

Komenskiy «Intizomsiz maktab⁵⁶ suvsiz tegirmon» degan edi.

Yan Amos Komenskiy intizom tarbiyasini maksadini quyidagicha ko'rsatgan edi:

1. Intizom o'rnatish uchun uni qonun qoidalarini o'rganib, amal qilish kerak;

2. Intizom o'rnatishdan maqsad ekanligini anglay olish zarur.

Komenskiy bolalarga tan jazosi berishni qattiq qoralaydi: «Qullik quroli bo'lgan, odamlarga to'g'ri kelmaydigan darra va tayoq maktablarda aslo ishlatmasligi kerak, bu qurollar maktablardan butunlay chiqarib tashlanishi lozim, mening kat'iy fikrim mana shu» - deydi.

Komenskiy o'qituvchining kasbiy sifatlari haqida.

Yan Amos Komenskiy o'qituvchini yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb deb hisoblab, o'qituvchiga nihoyatda katta ahamiyat berdi.

Shu bilan birga uning fikricha har bir o'qituvchi o'z kasbining burchi, vazifasi, ma'lumotini to'g'ri anglash lozim deb hisobladi.

U o'z ishini behad sevishi o'quvchilarga bamisoli otalaridek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug'dirishi zarur. «O'zi namuna ko'rsatib, o'quvchilarni o'ziga ergashtirish o'qituvchining eng birinchi vazifasidir».

Komenskiy o'zining dunyoqarashiga muvofiq dindorlik o'qituvchining eng muhim xislatlaridan biridir deb, hisobladi.

Uning qarashlarida diniy axloqiy shakllantirish, ma'rifat orqali xudoni anglashish asosiy axloqiy tarbiya vazifalari edi;

Umuman olganda, Yan Amos Komenskiy ilmiy pedagogika fanini shakllanishida muhim hissa qo'shdi. U pedagogika fanining asosi sifatida va barchani o'qitish lozim degan progressiv g'oya muallifi bo'lib tanildi.

Komenskiy o'z pedagogik g'oyalari bilan sxolastik ta'limotga qattiq zarba berdi. U maktab bolani ma'rifat olamiga boshlaganida, uni hissiy bilishga, so'ngra esa, aqliy bilishga o'rgatishi lozimligini ilgari surdi.

Yan Amos Komenskiy butun dunyoda⁵⁷ pedagogika ilmining va maktabning taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. U maktab ma'rifiy ishlari orqali jamiyat hayotini o'zgartirish mumkin degan progressiv g'oyalarini, ta'lim prinsiplari, uslublarini kiritdi.

Maktab ta'limini tashkil etish, sinf dars tizimi. Komenskiy maktabda o'quv yili va uni o'quv choraklariga bo'lish to'g'risidagi tushunchani, kanikulni kiritdi, o'quv kunini qanday tashkil etish belgilab berdi. (ona tili maaktabida 4 o'quv soati lotincha maktabda 6 o'quv soati), o'quv mashg'ulotlarining sinf-dars tizimini nazariy jihatdan ishlab chiqdi va bu temani amalda qo'lladi.

O'sha vaqtlardagi maktablarda o'quvchilar maktabga butun yil davomida turli vaqtlarda qabul qilina berar edi. O'quvchilar garchi sinfda birga o'tirsalar ham, lekin ko'pincha sinfning hamma o'quvchilari bilan kollektiv mashg'ulotlar olib borilmas edi, har bir o'quvchi o'ziga berilgan darsni o'qir, maktabda har bir o'quvchi sinfdan-sinfga o'zining vaqtiga yarasha alohida-alohida ko'chirila berar edi. O'qituvchi har bir o'quvchini huzuriga chaqirib, u bilan yakka tartibda shug'ullanar edi. Komenskiy maktabga o'quvchilarni yilda bir martda qabul qilish, o'qituvchi butun sinf bilan kollektiv ish olib borishni talab etdi. U o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning sinf-dars tizimiga asos soldi, darsni qanday rejalashtirish va olib borish to'g'risida ko'rsatmalar berdi, darsning bir qismini o'quvchilardan so'rash yo'li bilan ularning bilimlarini hisobga olishga ajratishni, bir qismini esa yangi materialni berish va mashqlar o'tkazishga ajratishni taklif qildi.

U har bir darsning o'z temasi va o'z vazifasi bo'lish lozimligini aytdi. O'qituvchi hamma o'quvchilarning mashg'ulotlarda faol qatnashishlarini diqqat bilan kuzatib borishni va dars vaqtida sinfda intizom saqlashlari lozimligini Komenskiy alohida uqtirib o'tdi.

Yan Amos Komenskiy o'qitishning mazmuni, o'qitish qoidalari to'g'risida. Komenskiy hamma maktablar uchun umumiy bo'lgan bir tizim bo'lishi, bolalarning qaysi toifaga mansubligidan ota-onalarining kimligidan qat'iy nazar ona tilidagi maktablar hamma bolalar uchun umumiy va majburiydir, deb ta'kidlaydi.

Komenskiy boshlang'ich umumiy ta'lim g'oyasini ilgari surdi. U kambag'allarning bolalaridagi iste'dod bilim olmasligi tufayli halok bo'ladi deb g'azablanardi.

Komenskiy fikricha, tarbiyaning uch bosqichi va uch vazifasi mavjud:

1. O'zini va tevarak atrofidagi olamni bilish (aqliy tarbiya).
2. O'z-o'zini boshqarish (axloqiy tarbiya).
3. Xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya).

Komenskiyning O'rta asr pedagoglaridan farqi shuki, u birinchi vazifaning bajarilishiga katta e'tibor berdi. Tarbiyaga yuksak baho berdi. Inson tarbiya tufayligina insonga aylanadi, u har qanday bolani ham odam qilishi mumkin, deydi.

Komenskiy birinchi bo'lib **ko'rsatmalilik tamoyilini** asoslab berdi. U mumkin bo'lgan narsalarning o'zini, mumkin bo'lmaganlarda esa rasmlardan foydalanish kerak, deb ko'rsatadi. O'sha davrgacha to'plangan ko'rsatmalik tamoyili asosidagi bilimlarni umumlashtirdi, guruhlashtirdi va kengaytirdi, amalda keng qo'lladi.

Komenskiy o'qitishdagi dogmatik usulga qarshi chiqdib **onglilik** tamoyilini ilgari surdi. U ta'limning **tizimli** bo'lishini talab qildi. Uning fikricha, ta'limda **izchillik** tamoyili katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning kuchi yetadigan narsani o'qitish kerak deb **didaktik** tamoyilni ilgari surdi. Komenskiy o'qitilayotgan materialni o'quvchilarning mustahkam, asosli ravishda o'zlashtirishlariga katta e'tibor berdi. Shuningdek, ovoz chiqarib takrorlashning ahamiyati kattaligini, o'quvchilarning qobiliyatini o'stirishi, nutqining rivojlanishi va rovon bo'lishi, o'quvchilarning bilish qobiliyatini imkon boricha kuchliroq o'stirishga harakat qildi.

Komenskiy barcha askarlarida, jumladan «Buyuk didaktika» asarida tarbiya tabiat bilan uyg'un bo'lishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. U tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lish tamoyilini birinchi bo'lib yaratdi. Bu tamoyil XVIII-XIX asr pedagoglari tomonidan ham qayta-qayta takrorlandi.

Komenskiy inson tabiatning bir ⁵⁹ qismidir, shuning uchun ham u tabiatga bo'ysunadi deb hisobladi. U «Buyuk didaktika» asarida bayon qilgan fikrlarning barchasi pedagogik tajribalari, orttirgan bilimlari bilan qimmatlidir. Bu asar din

bilan sug'orilgan bo'lsa-da, unda tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini isbotlab berishdagi fikrlari va ko'rsatmalari diqqatga sazovordir.

U o'z asarlarida bolaga tarbiya berishda inson tabiatiga (tug'ma belgilariga) e'tibor berishligini ko'rsatadi. U inson tabiatiga asoslanib, bolaning yosh davrlarini oralig'i 6 yildan bo'lgan 4 davrga ajratadi:

- 1) Go'daklik davri (tug'ilgandan 6 yoshgacha bo'lgan davr).
- 2) Bolalik davri (6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davr).
- 3) O'smirlik davri (12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davr).
- 4) Yetuklik (balog'at) davri (18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan davr).

Komenskiy birinchi davrda bola jismoniy jihatdan o'sadi, ikkinchi davrda eslash qobiliyati, xayol ularning ijrochilari bo'lgan til va qo'l rivojlanadi, uchinchisi davrda bulardan tashqari tafakkur yuksak darajada o'sadi, to'rtinchi davrda esa iroda va uyg'unlikni saqlash qobiliyati o'sadi, deb ko'rsatadi.

Komenskiy bu bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri-birining davomidir. U umumiy maktab bo'lishi kerak, deb demokratik tamoyilni ilgari suradi. 6 yoshgacha bo'lgan bolalar ijtimoiy hayot, tabiat, uy-ro'zg'or buyumlari to'g'risidagi dastlabki tushunchalarga ega bo'lishi kerak. Bu yoshdagi bolalarda insonparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, kattalarga hurmat, ozodalik kabi xislatlar tarkib toptirilishi kerak.

Komenskiy dunyoda birinchi marta tarbiyaga doir «**Onalar maktabi**» qo'llanmasini ishlab chiqdi. U maktablarda dunyoviy fanlar o'qitilishini, ashula va qo'l mehnati o'rgatilishini uqtirib, boshlang'ich maktablarning ahamiyatini ko'tardi. Shubhasiz din darslariga ham katta e'tibor berdi.

Insonning o'zini-o'zi boshqarishi, Komenskiy fikricha, tarbiyaning 3 maqsadidan biridir. Bunga axloqiy tarbiyaviy vositasi bilan erishiladi.

Komenskiy Platon va Aristotel yo'lidan borib, donishmandlik, mo'tadillik, mardlik va odillikni eng asosiy fazilatlar, deb hisoblaydi. Narsalar to'g'risida to'g'ri, rost fikr yuritish fazilatlarining asosidir. Shu sababli donishmandlik fazilatli turmushning rahbaridir. Odamning har ishida o'ziga xos ma'rifat bo'lishi, hiech

narsadan tuyish va nafratlanish darajasiga borib yetmasligi uchun mo'tadil bo'lishi kerak.

Mardlik – o'zini tuta bilish, chidamlilik, burchni ado etish singari xislatlarni o'z ichiga olishdir.

U shulardan tashqari bolalarda kamtarlik, mo'min-qobillik, shafqatlilik, pokizalik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalashni axloqiy tarbiyaning asosi deb biladi. Komenskiy intizomning ahamiyati juda kattaligini ko'rsatdi. Buning isboti uchun u chexlarning «**Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmondir**», deb maqomini keltiradi. Uning eng katta xizmati shundaki, u o'rta asrdagi kaltak vositasi bilan o'rnatiladigan intizomga qarshi chiqdi, bolalarga insoniy muomala qilishni talab qildi.

«**Yaxshi yo'lga qo'yilgan maktab qonunlari**» nomli asarida o'quvchilar xatti-harakatlariga taalluqli qimmatli qoidalar bayon etilgan.

Komenskiyning pedagogika sohasidagi merosi ta'lim-tarbiyada ahamiyati juda kattadir. Uning ko'p tillarga tarjima qilingan darsliklari ko'pgina mamlakatlarda, shuningdek, XVII-XVIII asrlarda Rossiyada ham keng tarqaldi va 150 yildan ko'proq davr davomida eng yaxshi darslik sifatida xizmat qilib keldi. Uning asrlari, qimmatli fikrlari hozir ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.

2. 2. Globallashuv jaryonida ta'lim mazmunini rivojlanishida Yan Amos Komenskiy ta'limotining o'rni

G'loballashuv jaryonida ta'lim mazmunini rivojlanishida Yan Amos Komenskiy ta'limotining o'rni o'anshalik muhnm ekanligini inkor etolmasligimizni Komenskiy o'qitishdagi dogmatik usulga qarshi chiqdiv a **onglililik** tamoyilini ilgari surdi. U ta'limning **tizimli** bo'lishini talab qildi. Uning fikricha, ta'limda **izchillik** tamoyili katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning kuchi yetadigan narsani o'qitish kerak deb **didaktik** tamoyilni ilgari surdi. Komenskiy o'qitilayotgan materialni o'quvchilarning mustahkam, asosli ravishda o'zlashtirishlariga katta e'tibor berdi. Shuningdek, ovoz chiqarib takrorlashning ahamiyati kattaligini, o'quvchilarning qobiliyatini o'stirishi, nutqining rivojlanishi va rovon bo'lishi, o'quvchilarning bilish qobiliyatini imkon boricha kuchliroq o'stirishga harakat qildi.

Xabar tipidagi ta'lim jarayoni –Y.A. Komenskiydan to hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an'anaviy ta'limdir .Xabar tipidagi ta'limni tashkil etish nazariyasi va amaliyoti sohasida juda ko'p o'zgartirish yuz bergan bo'lsa-da

Uning asosiy yo'nalishi bilimlardan amaliyotga borish hali ham sao'lanib o'olgan. Boshlo'acha bo'lishi ham mumkin emas .Chunki ta'lim jarayoning bu tipi kamxarj bo'lib ,u bolalarning turli sohadaga oid tayyor bilimlarni tezlik bilan o'zlashtirib olinishini ta'minlaydi Bular xabar xabar tipidagi ta'lim jarayoning ijobiy xususiyatlari sanaladi

Sistemalilik didaktik kategoriya sifatidida dastlab Y.A .Komenskiy asrlarida asoslangan edi. U tabiatga moslab o'o'itish g'oyasidan kelib chio'ib shunday yozgan edi ; Uy poydevordan boshlab o'uriladi .Pouydevor o'urilgach,

tov emas devorlar tiklanadi .Tabiatga bir narsa ikkinchisi bilan bog'lio' bo'lganidek ,talimda bir narsa ikkinchisi bilan aloo'ador bo'lmog'i lozim "O'quv mashg'ulotlarini sinflar bo'yicha shunday taqsimlasy kerakki unda o'rganilgan bilimlar keyin o'rganiladigan bilimlarga yo'l ochsin .

Y.A. Komenskiy sistemali o'qitishning zarurligini alohida qayd etgan edi:u yerdan bu yerdan o'rganilgan parcha-parcha bilimlardan foydalanib bo'lmaydi O'zaro bog'lanmagan bilimlar haqiqiy meva bermadi Bilimlarni yaxlit egallagan kishi o'z ildiziga ega bo'lgan daraxtga o'xshab kundan-kuniga rivojlanib ,kurkamlashib boradi

Tali mning an'anaviy turi Y.A. Komenskiy tomonidan asoslangan .Izohli-ko'rgazmali ta'lim 'asosan ,bolalar xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi ; O'qituvchi o'rganilayotgan mavzuga oid bilimlarni o'z suzlari bilan aytib beradi , zarur o'rinlarda bolalr ko'rgazma qurollarni kuzatib ,o'qituvchi tushuntirgan bilimlarni xotirada saqlab qolishadi .O'qituvchi savollarni o'rta ga tashlash darslikning ayrim sifatlarini o'qish kurgazma qurollarni qayta tahlil etish yo'llari bilan o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashni tashkil etadi, o'quvchillar esa kurgazma qurolni qayta tashkil etish ,darslikning aytilgan betlarini o'qish ,o'qituvchi savollariga javob izlash yullari bilan o'z bilimlari ni mustahkamlaydi. Komenskiyning pedagogikasi ilmiy pedagogik bo'lib, jahon madaniyatiga qo'shilgan katta hissadir. Uning qarashlari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida shaxs kamoloti tabiatga uyg'un bo'lishi degan g'oyani ilgari suradi. Ushbu g'oya ilk bor ilgari surilgan edi.

Yan Amos Komenskiy inson tabiatning birismi va tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy umumiy qoidalariga bo'ysunadi, deb hisoblanadi. Yan Amos Komenskiy «Maktabning aniq tartibini tabiatdan olmoq kerak» deydi.

Inson tabiatga ergashib, hamma ⁶³narsani bilib olishi mumkin, uning xotirasiz hamma narsani qamrab oladi, tiklaydi, lekin hyech qachon to'lib toshib ketmaydi.

Komenskiy tarbiya jarayonidagi xar bir pedagogik muammoni dalillar keltirish yuli bilan isbotlash usulini kiritdi va tarbiyaning umumiy konuniyatini ta'riflab berishga urindi.

Komenskiy ta'lim jarayonida hislar vositasiga asoslanish lozim, deb sensualistik falsafa degan g'oyani ilgari surdi. Bunda hislar orkali bolada tafakkur shakllanishini nazariy jihatdan asoslab berdi.

Komenskiy ko'rsatmalikni didaktikaning eng muhim prinsiplardan biri sifatida ishlab chiqib, katta xizmat ko'rsatdi. O'z darsliklarini suratlar bilan ta'minladi.

U dogmatik ta'lim mazmuni va sxolastik o'qitish uslubiga qarama-qarshi bo'lgan onglilik prinsipining ilgari surdi. Uning fikricha, hodisalarni o'rganish chog'ida shu hodisalarning sababini o'quvchilar to'la suratda anglamoq kerak.

Komenskiy ta'limni sistemali bo'lishni talab qiladi. O'qitishda fanlardan xulosalarga, misollardan koidalarga o'tish lozim.

Onglilik prinsipi ta'lim mazmuni o'quvchilar yoshiga mos holda belgilash va boqiylikni bayon etish. O'qitishning puxtaligi prinsipiga asoslangan holda o'quvchilarning bilish bosqichlari, orqali tushunchasini shakllantirish.

Insonning o'zini-o'zi boshqarishi, Komenskiyning fikricha tarbiyaning uch maqsadidan biridir. Bunga axloqiy tarbiya vositasi bilan erishiladi deb, xisoblaydi. Komenskiy Aristotel va Platon yo'lidan borib, donishmandlik mo'tadillik, mardlik va odillikni asosiy kardional eng yaxshi fazilatlar deb hisoblaydi.

Komenskiy axloqiy tarbiyaga doir g'oyalarga o'zining «Buyuk didkatika», «Yaxshi yo'lga qo'yilgan maktab qonunlari» asarlarida asoslab berdi. Uning fikricha, maktabda axloqiy tarbiya yuqori doirasida borishi lozimki, toki maktablar «Insonlar tarbiyalanadigan ustaxona» degan nomga munosib bo'lsin. Maktabda axloqiy tarbiya berish uchun quyidagi qoidalarga amal qilishni taklif etadi:

Yan Amos Komenskiy o'qituvchini⁶⁴ yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb deb hisoblab, o'qituvchiga nihoyatda katta ahamiyat berdi.

Shu bilan birga uning fikricha har bir o'qituvchi o'z kasbining burchi, vazifasi, ma'lumotini to'g'ri anglash lozim deb hisobladi.

U o'z ishini behad sevishi o'quvchilarga bamisoli otalaridek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug'dirishi zarur. «O'zi namuna ko'rsatib, o'quvchilarni o'ziga ergashtirish o'qituvchining eng birinchi vazifasidir».

Komenskiy o'zining dunyoqarashiga muvofiq dindorlik o'qituvchining eng muhim xislatlaridan biridir deb, hisobladi.

Uning qarashlarida diniy axloqiy shakllantirish, ma'rifat orqali xudoni anglashish asosiy axloqiy tarbiya vazifalari edi;

Umuman olganda, Yan Amos Komenskiy ilmiy pedagogika fanini shakllanishida muhim hissa qo'shdi. U pedagogika fanining asosi sifatida va barchani o'qitish lozim degan progressiv g'oya muallifi bo'lib tanildi.

Komenskiy o'z pedagogik g'oyalari bilan sxolastik ta'limotga qattiq zarba berdi. U maktab bolani ma'rifat olamiga boshlaganida, uni hissiy bilishga, so'ngra esa, aqliy bilishga o'rgatishi lozimligini ilgari surdi.

Yan Amos Komenskiy butun dunyoda pedagogika ilmining va maktabning taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. U maktab ma'rifiy ishlari orqali jamiyat hayotini o'zgartirish mumkin degan progressiv g'oyalarini, ta'lim prinsiplari, uslublarini kiritdi.

Maktab ta'limini tashkil etish, sinf dars tizimi. Komenskiy maktabda o'quv yili va uni o'quv choraklariga bo'lish to'g'risidagi tushunchani, kanikulni kiritdi, o'quv kunini qanday tashkil etish belgilab berdi.

U har bir darsning o'z temasi va o'z vazifasi bo'lish lozimligini aytdi. O'qituvchi hamma o'quvchilarning mashg'ulotlarda faol qatnashishlarini diqqat bilan kuzatib borishni va dars vaqtida sinfda intizom saqlashlari lozimligini Komenskiy alohida uqtirib o'tdi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish⁶⁵ mobaynida o'qituvchilarga Y.A. Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarini o'rganishga doir o'qituvchilarga seminarlar tashkil etilib, ular bilan asar mohiyatini taxlil qilingandan so'ng yana qaytadan savolnoma berildi

- 1.Sinf dars tizimining asoschisi kim?
- 2.O'qitish usullari ,shakllari to'g'risida nimalarni bilasiz ?
- 3.O'qitishning qanday usullaridan dars jarayonida foydalanasiz ?
- 4."Buyuk didaktika asarini o'qiganmisiz ?
- 5.Pedagogik texnologiyalar ta'lim shakllarini o'zgartiradimi?
- 6.Berilgan tavsiyalar fukrlaringizni o'zgartirdimi?

Samaradorligini aniqlash maqsadida Termiz shahridagi 3- umumiy o'rta ta'lim maktabida tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Ushbu maqsadda 12 soatlik dars mashg'ulotlarini kuzatdik. Tadqiqot davomida kuzatish, anketa so'rovlari, suhbat, pedagogik eksperiment kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalandik. Anketa so'rovlarida jami 42 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirok etdilar.

So'rov natijalari tahlili ko'rsatishicha,tajriba uchun tanlangan 22 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan 14 nafari (36 %) Buyuk didaktika asari haqida ma'lumotga egalar. 9 nafar (39 %) o'qituvchilar esa seminarlar natijasida , asarni oq'ish orqali ma'lumotga ega bo'ldilar 7 nafar (25%) o'qituvchi esa har bir o'qituvch asarni bilish zarur ekanligini aytishdi

№	Soni	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
		Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi
1	42\ 22	6	7	9	8	7	3
	% hisobida	36%	16%	39%	43%	25%	41%

X U L O S A L A R

Mavzu yuzasidan olib borilgan nazariy tadqiqotlar hamda mavjud adabiyotlarni o'rganish orqali ta'lim nazariyalarining mohiyati, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga kelindi:

Ta'lim nazariyalarining mohiyati va vazifalari

- ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;

- ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etishga

- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash imkon beradi

- Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlari o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

- O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limni jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi.

- Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash me'yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me'yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi.⁶⁷

Bitiruv malakaviy ishni bajarish mobaynida quydagicha tavsiyalar ishlab chiqildi

Ilmiy adabiyotlar tahlili, izlanishlar va tajriba-sunov ishlari natijasida ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik.

1. Didaktikaning tadrijiy rivojlanishini o'rganishga doir bilimlar mazmunini boyitish.

2. Zamonaviy didaktika bilan an'anaviy didaktikaning uyg'unlashgan ilmiy metodik ta'minotini yaratish.

3. Maktablarda "Buyuk didaktika" asarini o'rganishga doir seanslar tashkil etish.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг IX сессиясидаги маъруза. 1997 йил 29 август.
2. Karimov I. “Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat”. T.14. – T., 2006.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”. Toshkent “Ma’naviyat” 2008.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi oliy Majlisining o‘n to‘rtinchi sessiyasidagi ma’ruza. 1999 yil 14 aprel.
5. Karimov I.A. O‘zgarish va yangilanish - hayot talabi. Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida so‘zlangan nutq. 2000 yil 25 may.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Toshkent shahri, 2017-yil 14 - martdagi “O‘rta - maxsus, kasb - hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi.
8. Мирзиёев Ш.М. “Таныидий тахлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак”. Тошкент 2017.
9. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. Toshkent “O‘zbekiston” 2016 yil.

10. “2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha” 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati qoshidagi “O‘quv - uslubiy markaz” nodavlat ta‘lim muassasasi tomonidan Harakatning oliy ta‘lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilot yetakchilari, fakultet va yo‘nalish sardorlari uchun 2017 yil 5 - aprel kuni tashkil etiladigan maxsus o‘quv - seminar tarqatma materiallari. Namangan - 2017 yil.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Toshkent shahri, 2017-yil 14 - martdagi “O‘rta - maxsus, kasb - hunar ta‘limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi.

Kanstantinov., Ye.N. Medinskiy, M.F. Shabayeva «Pedagogika tarixi». «Ukituvchi». 1976 yil.

1. *M.F. Shabayeva «Pedagogika tarixi». «Ukituvchi». 1985 y.*
2. *V. Milash, Kratakvil. «Jizn Yan amos Kamenskigo» M. 1991 g.*
3. *Pedagogicheskoye naslediye Ya. A. Komenskiy, D. Lokk, J.J. Gusso, I. G. Pestalossi. Izd. «Pedagogika» 1988.*
4. *Ochilov, F. Gofforova. «Buyuk didaktika» Karshi sh. 1992 y.*
5. *O. Xasanbayeva, Pedagogika tarixidan xrestomatiyasi. T, 1993 yil.*
6. www.ziynet.uz
7. **www.nur.uz**
8. *Tojiyev., Saloxitdinov R., Barakayev M., Abdalova S. Ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2001.*

9. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan. 2000.
10. Farberman B.L., Musina R.T., Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. – T.: 2002.
11. Yo'ldoshev J. G'. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. – Xalq ta'limi jurnali, 1999, №4, 4-12 betlar.
12. Xo'jayev N.X., Xodiyev B.Yu., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Fan.2002.
13. Ye.N. Pronina, V.V.Lukashevich. «Psixologiya i pedagogika». Uchebnik dlya studentov VUZov. Izdatelstvo Elit. Moskva 2004.
14. Ahmedov Sh. «Uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integrasiyalashuvi». T.: 2001. Magistrlik dissertatsiyasi.
15. Shamsiyev Q. «Darslarni zamonaviy tashkil etishning shakl va uslublari». T.: 2005.(B.M.I.)
16. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. O'quv qo'llanma. –T.: «Iqbol-Turon» nashriyoti. 2006 y.